

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI FAOLIYATIGA DOIR AYRIM QONUNCHILIK HUJJATLARINI TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 6-apreldagi PQ-5055-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining (keyingi o'rnlarda — Suv xo'jaligi vazirligi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari;

Suv xo'jaligi vazirligining huquqlari, majburiyatlari, rahbariyatining asosiy funksional majburiyatlari va javobgarligi;

Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish tartibi;

b) O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida kapital qurilish loyihamalarini amalga oshirish agentligi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq:

Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida kapital qurilish loyihamalarini amalga oshirish agentligining (keyingi o'rnlarda — Agentlik) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari;

Agentlikning huquqlari, javobgarligi va rahbarlarining asosiy funksional vazifalari hamda javobgarligi;

Agentlik faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish, xodimlar mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi;

v) O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihamalarini amalga oshirish markazi to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq:

Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihamalarini amalga oshirish markazining (keyingi o'rnlarda — Markaz) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari;

Markazning huquqlari va javobgarligi;

Markaz rahbarlarining asosiy funksional vazifalari va javobgarligi;

Markaz faoliyatini tashkil etish, xodimlar mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi;

g) O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ishlatish tartibi to'g'risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq:

Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasining (keyingi o'rnlarda — Jamg'arma) maqsadlari;

Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi;
Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish, uning hisobotini va nazoratini yuritish;

d) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 5-ilovaga muvofiq:

xodimlarni mukofotlash va ularga moddiy yordam ko‘rsatishni moliyalashtirish manbalari hamda tartibi;

Jamg‘arma mablag‘lari hisobiga xodimlarni rag‘batlantirish miqdori va shartlari;

xodimlarni rag‘batlantirish tadbirlarini moliyalashtirish;

e) O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tizimiga kiradigan budjet tashkilotlari ro‘yxati 6 va 6a-ilovalarga muvofiq;

j) Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligining tarkibiga kiruvchi suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirishda buyurtmachi vazifasini bajaruvchi “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari ro‘yxati 7-ilovaga muvofiq;

z) “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a’lochisi” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizom, ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi tavsiflari 8, 8a va 8b-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 9-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 10-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.M. G‘aniyev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 17-sentabr,
573-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil
17-sentabrdagi 573-sон qaroriga
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquqlari va javobgarligini, faoliyatini tashkil etish hamda hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Vazirlik va uning tizimidagi barcha budget tashkilotlari (professional ta’lim muassasalaridan tashqari) suv resurslarini boshqarish, suvlarning hisobi, hisoboti va balansini shakllantirish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, suvlarning zararli ta’sirining oldini olish va bartaraf etish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

3. Vazirlik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga (keyingi o‘rinlarda — Vazirlar Mahkamasi) bo‘ysunadi.

4. Vazirlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, ushbu Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

5. Vazirlik o‘z faoliyatini davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

6. Vazirlikning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

7. Vazirlik va uning tarkibiga kiradigan tashkilotlar yuridik shaxs hisoblanadi, ular O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, banklarda hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisobvaraqlariga egadir.

8. Vazirlikning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi — O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi;
qisqartirilgan nomi — Suv xo‘jaligi vazirligi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi — Ministerstvo vodnogo xozyaystva Respubliki Uzbekistan,
qisqartirilgan nomi — Ministerstvo vodnogo xozyaystva;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi — Ministry of water resources of the Republic of Uzbekistan;
qisqartirilgan nomi — Ministry of water resources.

9. Vazirlik joylashgan joy (pochta manzili): 100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Qorasuv 4-dahasi, 11-uy.

2-bob. Vazirlilik tuzilmasi

10. Vazirlilik tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

Vazirlikning markaziy apparati;

Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihamalarini amalga oshirish agentligi;

Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihamalarini amalga oshirish markazi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi;

irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari;

magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari;

irrigatsiya tizimi boshqarmalari;

tumanlar (Quvasoy shahri) irrigatsiya bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda — tumanlar irrigatsiya bo‘limlari);

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalar;

Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi;

Amu-Buxoro mashina kanalidan foydalanish boshqarmasi;

Farg‘ona vodiysi magistral kanallaridan foydalanish boshqarmasi;

Janubiy Mirzacho‘l kanalidan foydalanish boshqarmasi;

Zarafshon magistral tizimidan foydalanish boshqarmasi;

Qirg‘oq himoyalovchi dambalar va o‘zanni rostlovchi inshootlar boshqarmasi;

O‘ng qirg‘oq kollektoridan foydalanish boshqarmasi;

Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmasi;

Suv omborlaridan foydalanish boshqarmalari;

Markaziy disptcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati;

Axborot-tahlil va resurs markazi;

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalari;

“Suvloyiha” davlat unitar korxonasi;

“O‘zsuvekspertiza” davlat unitar korxonasi;

“Botiometrik markaz” davlat unitar korxonasi;

Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti;

professional ta’lim muassasalari.

3-bob. Vazirlilik va uning hududiy bo‘linmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari

1-§. Vazirlikning asosiy vazifalari va funksiyalari

11. Vazirlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

suv resurslarini boshqarish, suvlarning hisobi, hisoboti va balansini shakllantirish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, suvlarning zararli ta’sirining oldini olish va bartaraf etish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

respublika aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari va atrof muhitning suvga bo‘lgan muttasil oshib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash;

suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiyalash, rivojlantirish va qurilish ishlarini sifatli tashkil etish, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek, xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi obyektlarini loyihalash va ekspertiza qilish ishlariga malakali xorijiy ekspertlar va konsalting tashkilotlarini jalb qilish;

har bir loyihaning iqtisodiy samaradorligini hamda suv xo‘jaligi obyektining xavfsizligini aniq ko‘rsatkichlar va mezonlar asosida chuqr tahlil qilish orqali uning ustuvorligini belgilash va amalga oshirish;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini ekspertiza qilish hamda amalga oshirish ishlarini ilmiy-texnik ta’minlash;

suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta’minlash;

sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta’minlash choralarini ko‘rish;

suv xo‘jaligi sohasida resurs tejaydigan texnologiyalar, zamonaviy qurilish materiallari, ilg‘or xorijiy tajribani keng qo‘llash;

suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda tegishli ma’lumotlar bazasini shakllantirishda raqamli texnologiyalarni joriy qilish;

suv resurslarining hisobi va elektr energiyasi iste’moli bo‘yicha shaffoflikni ta’minlash hamda ularning samaradorligini oshirish;

suv xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va autsorsingni joriy qilish;

suv xo‘jaligi sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirishni tizimli tashkil etish, suv xo‘jaligi tashkilotlari bilan ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, fan va texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etishni tizimli tashkil qilish;

transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar va texnik ko‘mak mablag‘larini jalb qilish, shuningdek, suv xo‘jaligi sohasidagi xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etish.

12. Quyidagilar Vazirlikning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

a) suv resurslarini boshqarish, suvlarning hisobi, hisoboti va balansini shakllantirish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, suvlarning zararli ta’sirining oldini olish va bartaraf etish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida:

suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiysi va uni amalga oshirish strategiyasini, shuningdek, irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha dasturlarni oshkoraliq asosida ishlab chiqadi;

global iqlim o‘zgarishi va Orol dengizi qurishining aholi hayoti va faoliyatiga salbiy ta’sirini kamaytirish hamda Orolbo‘yi hududida suv xo‘jaligi vaziyatini barqarorlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

suvdan foydalanish va suv iste’molida suv resurslarining hisobi va hisobotini hamda monitoringini yuritadi, suv balansini shakllantiradi, shuningdek, davlat suv kadastrining “Suvdan foydalanish” bo‘limi yuritilishini tashkil qiladi;

suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilari, shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida (kommunal sohadan tashqari) suv resurslaridan foydalanish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yaratadi;

suv iste'molchilari uyushmalari va boshqa birlashmalarni tuzish va ularni rivojlantirishda, shuningdek, ular xizmat ko'rsatadigan zonada suv resurslarini boshqarish va hisobga olishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi;

suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilari o'rtasida o'zaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda suv resurslarini boshqarish, suvlarning zararli ta'sirining oldini olish va tugatish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

davlat siyosatining suv xo'jaligi sohasidagi asosiy yo'nalishlari, suv xo'jaligini rivojlantirishning konsepsiysi, ularni amalga oshirishning strategiya va mexanizmlari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

b) respublika aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari va atrof muhitning suvga bo'lgan muttasil oshib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash sohasida:

suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish tamoyillarini joriy qilish va suvdan kompleks foydalanish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlaydi, suv xo'jaligini rivojlantirishning istiqbolli sxemalarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

mamlakat suv xavfsizligini ta'minlash hamda suv resurslarini samarali boshqarish va foydalanishni ta'minlash bo'yicha qisqa, o'rtaligida uzoq muddatlarga mo'ljallangan kompleks tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

suv resurslarining havza tamoyili va butun vertikal bo'ylab samarali boshqarish asosida hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlaydi;

suv resurslari prognozlarini kompleks tahlil qiladi va suv resurslari balanslarini ishlab chiqadi, suv manbalari, havza irrigatsiya tizimlari, iqtisodiyot tarmoqlari, hududlar, suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilari bo'yicha, yer osti suvlar bo'yicha esa geologiya va mineral resurslar organlari bilan kelishgan holda suv olish limitlarini belgilaydi;

suv olish limitlari asosida suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibining amalda qo'llanilishini ta'minlaydi;

sun'iy suv obyektlari suvidan maxsus foydalanish va suvni maxsus iste'mol qilish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomalar beradi, tabiiy yer usti suv obyektlari suvidan maxsus foydalanish va suvni maxsus iste'mol qilishga ruxsatnomalar berishni kelishadi;

suvdan foydalanish va suv iste'moli bo'yicha qonunchilik hujjatlar loyihibarini belgilangan tartibda ishlab chiqadi hamda ularni takomillashtiradi;

suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlar rahbarlari va xodimlarining suvdan foydalanish va suv iste'moli tartibiga qat'iy rioya qilishi bo'yicha javobgarligini oshirish choralarini ko'radi;

ommaviy axborot vositalari, shuningdek, anjumanlar, seminarlar, treninglar va boshqa tadbirlarni o'tkazish orqali suv resurslarini asrash va ulardan tejamli foydalanish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib boradi;

ta'lim muassasalarining yosh avlodni suvdan avaylab-asrab foydalanish ruhida tarbiyalash va suvdan foydalanish madaniyatini oshirish bo'yicha tadbirlarida ishtirok etadi;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda suv bo'yicha ommabop resurslar bilimlar bazasini yaratish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi;

v) suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiyalash, rivojlantirish va qurilish ishlarini sifatli tashkil etish, hujjatlarni ishlab chiqish, shuningdek, xavf darajasi yuqori bo'lgan suv xo'jaligi obyektlarini loyihalash va ekspertiza qilish ishlariga malakali xorijiy ekspertlar va konsalting tashkilotlarini jalb qilish sohasida:

suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tizimli monitoring yuritadi, shuningdek, buyurtmachi, loyihamchi va pudratchi tashkilotlar tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlaydi, loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko'radi;

ko'p yillik tajribaga va yetarli malakaga ega bo'lgan xalqaro konsultantlar, xorijiy mutaxassislar bilan belgilangan tartibda muzokaralar olib boradi;

suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo'lgan boshqa suv xo'jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiqish hamda ekspertiza qilish, shuningdek, ularning xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishga xalqaro konsultantlar, xorijiy mutaxassislar bilan belgilangan tartibda tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi hamda xalqaro normalarga asosan jalb qiladi;

suvlarning va suv obyektlarining holatiga ta'sir qiladigan tashkilotlar, inshootlar hamda boshqa obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tiklash bo'yicha loyihalarni ko'rib chiqadi va belgilangan tartibda kelishadi;

g) har bir loyihaning iqtisodiy samaradorligini hamda suv xo'jaligi obyektining xavfsizligini aniq ko'rsatkich va mezonlar asosida chuqur tahlil qilish orqali uning ustuvorligini belgilash va amalga oshirish sohasida:

davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda oshkoraliq asosida suv xo'jaligi obyektlarini (ichimlik va oqova suv tizimidan tashqari) qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash bo'yicha ustuvor loyihalarini, jumladan, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining kreditlari, grantlari ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarini ularning iqtisodiy samaradorligi hamda suv xo'jaligi obyektining xavfsizligi bo'yicha aniq ko'rsatkichlar va mezonlar asosida chuqur tahlil qilish orqali aniqlaydi;

irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha qisqa, o'rta va uzoq muddatli davlat dasturlarini oshkoraliq asosida ishlab chiqadi va belgilangan tartibda amalga oshiradi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasining (keyingi o'rnlarda — "Davsuvxo'jaliknazorat" davlat inspeksiyasi) suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi ko'rsatmalarini ko'rib chiqadi hamda suv xo'jaligi obyektlarining ustuvorligini belgilaydi;

ustuvor loyihalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasining investitsiya hamda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga kiritish va tegishli mablag‘larni ajratish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar kiritadi;

suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalarning texnik topshiriqlarini, shuningdek, loyiha hujjatlarini “Davsuvxo‘jaliknazorat” davlat inspeksiyasi bilan kelishadi;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash bo‘yicha ustuvor loyihalarning loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqilishini, ekspertizadan o‘tkazilishini hamda bosh pudrat tashkilotlari tanlov (tender) savdolari asosida shaffof aniqlanishini hamda tegishli shartnomalar rasmiylashtirilishini tashkil qiladi;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyihalarning tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini hamda qurilishi yakunlangan ishlar belgilangan tartibda qabul qilinilishini tashkil etadi;

d) suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini ekspertiza qilish hamda amalga oshirish ishlarini ilmiy-texnik ta’minlash sohasida:

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-qidiruv ishlari qiymatining hisob-kitobiga loyiha-qidiruv ishlari umumiy qiymatining 10 foizigacha miqdorda qo‘srimcha mablag‘lar kiritilishini ta’minlaydi;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-qidiruv ishlarini ilmiy-texnik jihatdan kuzatishni belgilangan tartibda tashkil qiladi;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha qurilish ishlarining tasdiqlangan loyiha hujjatlariga muvofiq va sifatli bajarilishini ilmiy-texnik jihatdan ta’minlashni tashkil qiladi;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash va tiklash bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining sohaviy ekspertizasi o‘tkazilishini nazorat qiladi;

e) suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta’minlash sohasida:

suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlar rahbarlari va xodimlarining suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta’minlash bo‘yicha belgilangan talablar va qoidalarga qat’iy rioya etilishi yuzasidan javobgarligini oshiradi;

suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holati yuzasidan loyiha tashkilotlari va manfaatdor tashkilotlar ishtirokida tizimli monitoring yuritadi hamda natijasini tahlil qilib boradi;

“Davsuvxo‘jaliknazorat” davlat inspeksiyasi tomonidan berilgan ko‘rsatmalar asosida suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarining xavfsizligini ta’minlash yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va belgilangan tartibda ijrosini tashkil qiladi;

suv xo‘jaligi obyektlarida avariya-zaxira materiallari o‘z vaqtida yaratilishini va ularidan maqsadli foydalanishni tashkil qiladi;

j) sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta’minlash choralarini ko‘rish sohasida:

kollektor-drenaj tarmoqlarining texnik holati va ulardan maqsadli foydalanish bo‘yicha tizimli monitoring yuritishni tashkil qiladi;

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini tizimli nazorat qiladi, sohaga raqamli texnologiyani joriy qiladi va meliorativ kadastr yuritadi hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha o‘z vaqtida ilmiy asoslangan tavsiyalar berilishini tashkil qiladi;

kollektor-drenaj tarmoqlari va ulardagi inshootlarni rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlarini hamda yerlarning meliorativ barqarorligini belgilangan tartibda tashkil qiladi;

erlarning meliorativ holatini yaxshilash sohasiga ilm-fan yutuqlarini, geoaxborot texnologiyalari bo‘yicha ilg‘or tajribalarni, shuningdek, innovatsion usullarni joriy qiladi;

z) suv xo‘jaligi sohasida resurs tejaydigan texnologiyalar, zamonaviy qurilish materiallari, ilg‘or xorijiy tajribani keng qo‘llash sohasida:

qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha hududiy manzilli ro‘yxatlarni shakllantirishda ishtirok etadi hamda tasdiqlangan manzilli ro‘yxatlarni umumlashtiradi;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish ishlari bo‘yicha monitoring olib boradi va tahlil qiladi, ularni joriy qilishni kengaytirish va davlat tomonidan rag‘batlantirib borish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini takomillashtirish, samaradorligini oshirish va yangilarini yaratish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot hamda loyiha-konstrukturlik ishlarini kengaytirish, yangi ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish ishlarni tashkil qiladi;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari butlovchi qismlarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlar faoliyatini o‘rganib boradi hamda ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

suv xo‘jaligi qurilishida resurslarni tejaydigan texnologiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni keng qo‘llash, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish chorasini ko‘radi.

i) suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda tegishli ma‘lumotlar bazasini shakllantirishda raqamli texnologiyalarni joriy qilish sohasida:

yirik suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomillashtiradi;

suv xo‘jaligi obyektlarida suvning hisobi va hisobotini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy qiladi hamda ulardan samarali foydalanishni ta’minlaydi;

suvning hisobi va hisobotini yuritishda shaffoflik va oshkoraklikni ta’minalash, ma‘lumotlar bazasini shakllantirish ishlarini olib boradi hamda Vazirlik rasmiy veb-saytida yoritib boradi;

er usti suvlaridan foydalanish bo‘yicha davlat suv kadastrini yuritishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida takomillashtiradi;

yer osti suvlarining holati va ko‘rsatkichlarining raqamli texnologiya asosida monitoringini yuritadi;

suv xo‘jaligini raqamlashtirishga xalqaro moliya institatlari, xorijiy davlatlar, xalqaro va chet el tashkilotlari hamda jamg‘armalarni jalb etadi;

y) suv resurslarining hisobi va elektr energiyasi iste'moli bo'yicha shaffoflikni ta'minlash hamda ularning samaradorligini oshirish sohasida:

nasos stansiyalarida suvning hisobi va elektr energiyasi iste'molining raqamli texnologiyalar asosida monitoringni yuritadi;

suvdan foydalanish va elektr energiyasi iste'moli bo'yicha shaffof tizimni joriy qiladi;

suvdan foydalanish va elektr energiyasi iste'moli bo'yicha ma'lumotlarni tizimli tahlil qilib boradi hamda ushbu resurslardan ajratilgan limitlar doirasida foydalanishni nazorat qiladi va ulardan samarali foydalanish choralarini ko'radi;

nasos stansiyalarini elektr energiyasini tejaydigan va samarali ishlaydigan zamonaviy nasoslar, elektr dvigatellari va boshqa uskunalar bilan belgilangan tartibda jihozlashni ta'minlaydi, nasos stansiyalari ish rejimini tartibga solish hamda elektr energiyasi iste'molini kamaytirish choralarini ko'radi;

moddiy-texnika va energetika resurslari sarfini kamaytirishni tashkil qiladi, yangi texnika va ilg'or texnologiya hamda soha bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasini qo'llash bo'yicha qonunchilik hujjatlari loyihamonlari ishlab chiqadi;

Vazirlik tizimidagi tashkilotlar uchun ajratilgan elektr energiyasi limitlariga o'zgartirish kiritish yuzasidan tegishli vazirliklar va idoralarga takliflar kiritadi;

k) suv xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va autsorsingni joriy qilish sohasida:

alohida suv xo'jaligi obyektlarini fermer xo'jaliklari, klasterlar va boshqa tashkilotlarga davlat-xususiy sheriklik asosida foydalanishga berish hamda autsorsingni joriy qilish dasturlarini shakllantiradi;

davlat-xususiy sheriklik loyihamonlari amalga oshirish bo'yicha xususiy sheriklar bilan muzokaralar olib boradi, ularga loyihaoldi hujjatlarini tayyorlashda ko'maklashadi va moliyaviy xulosa olish, ko'rib chiqish hamda kelishish uchun vakolatli davlat organiga taqdim qiladi;

ijobiy xulosalar olingan davlat-xususiy sheriklik loyihamonlari bo'yicha loyiha bitimini ishlab chiqadi, tasdiqlash va belgilangan tartibda reyestrga kiritish uchun vakolatli davlat organiga taqdim qiladi;

davlat-xususiy sheriklik loyihamonlari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi;

davlat-xususiy sheriklik loyihamonlari amalga oshirilishi hamda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim shartlariga rioya etilishi yuzasidan monitoring yuritadi va samaradorligini tahlil qiladi;

l) suv xo'jaligi sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirishni tizimli tashkil etish, suv xo'jaligi tashkilotlari bilan ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, fan va texnika yutuqlarini amaliyatga joriy etishni tizimli tashkil qilish sohasida:

suv xo'jaligi sohasidagi kadrlar, mutaxassislar, shu jumladan, suv xo'jaligi tashkilotlari rahbar xodimlari va mutaxassislarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslarini muntazam ravishda tashkil etadi;

suv xo'jaligi tashkilotlarining ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar bilan o'zaro integratsiyasini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

suv xo‘jaligi sohasidagi oliy ta’lim muassasalari talabalari va professional ta’lim muassasalari o‘quvchilarining o‘quv-ishlab chiqarish amaliyotini sifatli o‘tkazish bo‘yicha zarur shart-sharoitlarni yaratadi;

suv xo‘jaligi sohasiga zamonaviy va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va keng qo‘llash bo‘yicha malakali kadrlarni tayyorlashga ko‘maklashadi;

Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari (keyingi o‘rinlarda — hududiy bo‘linmalar) va idoraviy mansub tashkilotlarning ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini tashkil qiladi, suv xo‘jaligidagi muammolarni joylarda aniqlaydi, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstrukturlik ishlarini shartnomalar asosida tashkil qiladi;

yakunlangan ilmiy ishlanmalar va tavsiyalarni amaliyotga joriy qilishni tashkil qiladi;

suv xo‘jaligi sohasidagi kadrlar va mutaxassislarning, shu jumladan, suv xo‘jaligi tashkilotlari rahbar xodimlari va mutaxassislarining malakasini oshirish bo‘yicha idoraviy ilmiy va o‘quv kurslarini respublikaning ixtisoslashtirilgan suv xo‘jaligi tashkilotlari, ta’lim va ilmiy muassasalari, professional ta’lim muassasalarida, shuningdek, xorijda belgilangan tartibda tashkil etadi;

m) transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar va texnik ko‘mak mablag‘larini jalb qilish, shuningdek, suv xo‘jaligi sohasidagi xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etish sohasida:

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi va uning Davlatlararo suv xo‘jaligini muvofiqlashtiruvchi komissiyasi faoliyatida faol ishtirok etadi;

transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalari bo‘yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan suv resurslarini birgalikda boshqarishning o‘zaro maqbul mexanizmlarini va suvdan samarali foydalanish dasturlarini ishlab chiqish hamda ilgari surishda ishtirok etadi;

xorijiy davlatlardagi suv xo‘jaligi obyektlari loyihalarini ishlab chiqish va ularning qurilishida belgilangan tartibda ishtirok etadi;

transchegaraviy suv resurslarini tartibga solish va ulardan foydalanish, suv xo‘jaligini rivojlantirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha davlatlararo masalalarni muhokama qilish va hal etishda respublika nomidan ishtirok etadi;

xalqaro shartnomalar, xorijiy mamlakatlar bilan suv xo‘jaligi va melioratsiya sohasidagi hamkorlik dasturlari doirasida O‘zbekiston tomonining majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro tadbirlarning respublikada o‘tkazilishini tashkil etadi, suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha xorijiy hamkorlar bilan muzokaralarda qatnashadi;

Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi va uning tizim tashkilotlari, Butunjahon suv Kengashi, Irrigatsiya va drenaj Xalqaro komissiyasi, Yirik to‘g‘onlar bo‘yicha Xalqaro komissiya, Suv resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha Islom davlatlararo tarmog‘i va boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etadi.

2-§. Vazirlik markaziy apparatining asosiy vazifalari va funksiyalari

13. Quyidagilar Vazirlik markaziy apparatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar bilan birgalikda Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta’minlash;

suv xo‘jaligi sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash;

suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasi hamda suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish strategiyalari ijrosini ta’minlash;

Vazirlik, hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishini ta’minlash;

davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan Vazirlik faoliyati sohasiga kiradigan masalalar bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilish, Vazirlar Mahkamasi va uning Rayosati majlislarida tegishli masalalarni ko‘rib chiqishda ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiya rahbarining, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rnbosarlari va maslahatchilari topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

Vazirlik xodimlarini tizimli ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish;

Vazirlik, hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyati samaradorligini tanqidiy tahlil qilish, tahlil natijalariga ko‘ra zarur choralar ko‘rish;

Vazirlik, hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy qilish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha samarali faoliyatni ta’minlash, aholi bilan bevosita va ochiq muloqot o‘rnatish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlikni, ularning faoliyatida Vazirlik xodimlari va rahbarlarining faol ishtirok etishini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasidan tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqilishini ta’minlash;

xalqaro va davlatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash bo‘yicha tadbirdorda xalqaro maydonda O‘zbekiston Respublikasi nomidan vakillar ishtirokini, suv xo‘jaligi sohasiga xorijiy investitsiya va grantlarning jalb qilinishini ta’minlash;

Vazirlik Hay’ati qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining (keyingi o‘rinlarda — Vazir) buyruqlari va topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

Vazirlik, hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar kadrlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning kasbiy mahorati, amaliy tajribasi, yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy sifatlari kafolatini ta’minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish choralarini ko‘rish, kadrlar zaxirasini shakllantirish;

suv xo‘jaligi masalalariga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Hukumatning qarorlari va farmoyishlari loyihibalarini o‘z vaqtida sifatli tayyorlash.

14. Quyidagilar Vazirlik markaziy apparatining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

Vazirlik va uning rahbariyati faoliyatini tashkiliy va axborot-tahlil jihatidan ta’minlaydi;

Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarini hamda idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro

etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 10-fevraldaggi PF-6166сон Farmoni talablariga qat'iy rioya etish;

Vazirlik faoliyati doirasida ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomini mustahkamlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruv organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son, "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi muntazam nazorat qilinishini ta'minlaydi;

Vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan qonunchilik hujjatlarining sifatli va o'z vaqtida ishlab chiqilishini hamda ularning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy ekspertizasi o'tkazilishini ta'minlaydi;

Vazirlikning hududiy bo'linmalarini va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi hamda tahlil qiladi;

Vazirlikning faoliyati, shu jumladan, qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyati huquqiy ta'minlanishini tashkil qiladi;

Vazirlikning vakolatiga kiruvchi tezkor, tashkiliy, kadrlar, moliyaviy, ishlab chiqarish-xo'jalik hamda boshqa masalalar bo'yicha buyruqlar qabul qiladi;

Vazirlik, hududiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishilishini so'zsiz ta'minlash bo'yicha amaliy choralar ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan Vazirlik faoliyati sohasiga kirdigan masalalar yuzasidan o'zaro hamkorlik qiladi;

Vazirlik markaziy apparati, hududiy bo'linmalar, ularning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy qiladi;

Vazirlikning samarali faoliyatini tashkil qilish va takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

suv xo'jaligi sohasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilishiga tashkiliy va moliyaviy ko'maklashadi;

idoraviy mansub professional ta'lim muassassalari faoliyatini tashkil qilishga ko'maklashadi, ular bilan kadrlarni tayyorlash va suv xo'jaligi tashkilotlari kadrlarining malakasini oshirishda hamkorlik qiladi;

davlat suv kadastrining "Suvdan foydalanish" bo'limini va sug'oriladigan yerlarning meliorativ kadastri yuritilishini tashkil qiladi;

suv resurslarini va suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarishga raqamli texnologiyalarni joriy qilishni tashkil qiladi:

suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va autsorsingni joriy qiladi;

respublika budjetidan moliyalashtiriladigan idoraviy mansub tashkilotlarda moliya, buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etadi;

Vazirlik, hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlarda ichki audit va moliyaviy nazoratni tashkil etadi hamda amalga oshiradi;

hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlarni moddiy-texnik ta’minlashni tashkil etadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etadi;

xorijiy investitsiyalar jalb etilishini va xalqaro hamkorlikni tashkil etadi;

suv xo‘jaligi sohasida anjumanlar, seminarlar va xalqaro tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish ishlarini bajaradi;

suv xo‘jaligi sohasida ilm-fan va ishlab chiqarishning ilg‘or yutuqlarini ommaviy axborot vositalarida muntazam va keng yoritishga doir ishlarni amalga oshiradi.

3-§. Vazirlik hududiy bo‘linmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari

15. Quyidagilar Vazirlik hududiy bo‘linmalarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta’minlashda ishtirok etish;

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish;

suv xo‘jaligi sohasini kompleks modernizatsiyalash, mintaqaning suv xo‘jaligi obyektlariga fan-texnika yutuqlari, svnvi tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarni joriy qilishga yo‘naltirilgan yagona suv xo‘jaligi siyosati amalga oshirilishini ta’minlash;

suv xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalar, grantlar va texnik yordamlarni jalb etish choralarini ko‘rish, loyihalarni boshqarishga muvofiq ulardan samarali foydalanishni ta’minlash;

suv resurslarini boshqarishning tamoyillari va tizimini takomillashtirish, suvdan tejamli va oqilona foydalanishni ta’minlash, irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish choralarini ko‘rish;

kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish, ularning malakasini oshirish muntazam ravishda samarali tashkil etilishini ta’minlash;

suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va autsorsingni joriy qilishda ishtirok etish;

suv resurslari va suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarishni raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirishni tashkil etish;

hududiy bo‘linmalar tarkibidagi tashkilotlar faoliyatini nazorat qilish.

16. Quyidagilar hududiy bo‘linmalarning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

suv xo‘jaligi sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini rivojlantirish mexanizmlari va strategiyasi amalga oshirilishini ta’minlaydi;

suv xo‘jaligi sohasini rivojlantirish bo‘yicha tarmoq va mintaqaviy dasturlar samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi;

Vazirlik buyruqlari va Hay'ati qarorlarini bajarish bo'yicha ishlarni tashkil etadi; xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlarning investitsiyalari, imtiyozli kreditlari, grantlari va texnik yordamlarini jalg etishga ko'maklashadi, investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi;

mahalliy investitsiyalarni jalg qilishga ko'maklashadi hamda ulardan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlaydi;

Vazirlikka suv xo'jaligi sohasida xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflar kiritadi hamda ularni amalga oshirish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi;

suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish va ulardan oqilona foydalanishni, svjni boshqarish samaradorligini oshirishni, suvdan foydalanish va suv iste'molining innovatsion texnologiyalari va mexanizmlarini faol joriy etishni ta'minlaydi;

suv iste'molchilar uyushmalari va boshqa birlashmalarni tuzish, ularni rivojlantirishda metodik va amaliy yordam ko'rsatadi, suv iste'molchilar uyushmalarining suv xo'jaligi obyektlari texnik holati, ularni ta'mirlash va tiklash ishlari bo'yicha monitoring olib boradi;

er usti suv resurslarini havza tamoyili asosida boshqarishni amalga oshiradi;

irrigatsiyani rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda qatnashadi;

irrigatsiya va melioratsiya tizimlari, nasos stansiyalari, suv omborlari va boshqa davlat suv xo'jaligi obyektlaridan samarali hamda ishonchli foydalanishni tashkil qiladi;

suv resurslarini hisobga olish va hisoboti yuritilishini tashkil etadi, davlat suv kadastrining "Suvdan foydalanish" bo'limini yuritishda ishtirok etadi;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, sug'orish va kollektor-drenaj suvlarining sifati monitoringini yuritadi;

suv resurslari prognozini tahlil qiladi va irrigatsiya tizimlari, tumanlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha suv olish limitlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi, suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilarining suvdan tejab foydalanganliklari uchun rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi;

suv iste'molchilar uyushmalariga suvdan foydalanish va suv iste'moli bo'yicha shartnomalarni tuzish, ularning sug'orish tarmoqlarini svjni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash ishlariga ko'maklashadi va monitoring yuritadi;

suv xo'jaligi infratuzilmasini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha konsepsiylar, strategiyalar va kompleks chora-tadbirlarni, shuningdek, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

hududiy bo'linma, idoraviy mansub tashkilotlar rahbar va mutaxassislari, shu jumladan, suv iste'molchilar uyushmalari rahbarlari va mutaxassislarining malakasini oshirishni belgilangan tartibda tashkil qiladi;

hududiy bo'linma va idoraviy mansub tashkilotlarda suv xo'jaligi sohasidagi oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalari bilan talabalar va o'quvchilarning o'quvanishish hamda o'quv-ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishda hamkorlik qiladi;

idoraviy mansub tashkilotlarga kadrlar bilan ishlashni takomillashtirish va ularning malakasini oshirishni tashkil etishda amaliy yordam beradi;

suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va autsorsingni joriy qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va Vazirlikka kiritadi;

suv xo‘jaligi obyektlaridan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida foydalanish bo‘yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashda va monitoring olib borishda ishtirot etadi;

suv xo‘jaligi obyektlarida suvning hisobi va hisobotini yuritishga raqamli texnologiyalarni joriy qilishni belgilangan tartibda tashkil qiladi;

nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, meliorativ ekspeditsiyalar, magistral kanallar boshqarmalari, irrigatsiya tizimi boshqarmalari va tumanlar irrigatsiya bo‘limlari faoliyatini nazorat qiladi.

4-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari

17. Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarining (keyingi o‘rinlarda — nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari) asosiy vazifalari hisoblanadi:

Vazirlikka va uning hududiy bo‘linmalariga yuklagan vazifalar hamda funksiyalar samarali bajarilishini ta’minlashda ishtirot etish;

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish;

nasos stansiyalari va energetika boshqarmalariga tegishli davlat nasos stansiyalari, sug‘orish va meliorativ quduqlar, podstansiyalar, transformatorlar, elektr uzatish va aloqa tarmoqlari, avtotransport vositalarini texnik soz holatda saqlash, ularning ishonchli ishlashini hamda takomillashtirilishini ta’minlash;

nasos stansiyalari va sug‘orish quduqlari hamda meliorativ nasos stansiyalari va quduqlarning samarali ishlashini ta’minlash;

elektr energiyasi va boshqa resurslarni iqtisod qiluvchi zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, sarflangan elektr energiyasi va yetkazib berilgan suvlarning hisobi va hisobotini yuritish;

ajratilgan mablag‘lardan, moddiy-texnika resurslaridan, texnika jihozlaridan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash;

o‘z vakolati doirasida moliyaviy hujjatlar, oylik, choraklik va yillik elektr energiyasi hisobotlari, texnik hisobotlar va boshqa zarur bo‘lgan hujjatlar o‘z vaqtida tayyorlanishiga hamda haqqoniyligiga javob berish.

18. Quyidagilar nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

nasos stansiyalari va energetika boshqarmalariga tegishli nasos stansiyalari, sug‘orish va meliorativ quduqlarni, suv uzatish tarmoqlarini, podstansiyalarni, transformatorlarni, elektr uzatish tarmoqlarini, aloqa va avtotransport vositalarini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazadi;

tub va joriy ta’mirlash ishlarini belgilangan tartibda amalga oshiradi;

nasos stansiyalari, sug‘orish va meliorativ quduqlarning ajratilgan suv olish va elektr energiyasi limitlari hamda yoqilg‘i-moylash materiallari doirasida tegishli shartnomalar asosida samarali ishlashini ta’minlaydi;

suv va ishlatilgan elektr energiyasi hisobi va hisobotini yuritadi, raqamli texnologiyani belgilangan tartibda joriy qiladi;

ajratilgan elektr energiyasi, yoqilg‘i-moylash materiallaridan maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

budget mablag‘lari hamda xo‘jalik faoliyatidan tushgan mablag‘lardan belgilangan maqsadlarda samarali foydalanishni ta’minlaydi va tegishli statistika va buxgalteriya hisobotini yuritadi;

nasos stansiyalari, sug‘orish va meliorativ quduqlarni tub va joriy ta’mirlash hamda rekonstruksiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

nasos stansiyalari, sug‘orish va meliorativ quduqlarning hududiy bo‘linmalar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan jadvallar asosida samarali ishlashini ta’minlaydi;

suv xo‘jaligi tashkilotlari, suv iste’molchilari va boshqa shaxslarga shartnoma asosida suv xo‘jaligi hamda qonunchilik hujjatlarida man etilmagan boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatadi;

nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari xodimlarini belgilangan tartibda maxsus kiyimlar va asbob-uskunalar bilan ta’minlaydi;

kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, kadrlar malakasini oshirishni belgilangan tartibda tashkil qiladi, kadrlar zaxirasini yaratish bo‘yicha oliv ta’lim muassasalari va professional ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi;

nasos stansiyalari, sug‘orish va meliorativ quduqlaridan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida foydalanish bo‘yicha takliflarni tayyorlaydi va hududiy bo‘linmalarga kiritadi;

nasos stansiyalari, sug‘orish va meliorativ quduqlardan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida foydalanish bo‘yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashda va monitoring olib borishda ishtirok etadi.

5-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalarning asosiy vazifalari va funksiyalari

19. Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalarning (keyingi o‘rnarda — meliorativ ekspeditsiyalar) asosiy vazifalari hisoblanadi:

Vazirlik va uning hududiy bo‘linmalariga yuklagan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta’minlashda ishtirok etish;

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida xo‘jalik birlashmlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlik qilish;

sug‘oriladigan yerlar meliorativ holatining tizimli monitoringini yuritish va meliorativ kadastrni ishlab chiqish;

tizimidagi kollektor-drenaj tarmoqlarini texnik soz holatda saqlash va ularning ishonchli ishlashini ta’minlash;

erlarning meliorativ holatini monitoring qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va boshqa suv iste’molchilarga yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berish.

20. Quyidagilar meliorativ ekspeditsiyalarning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

sug‘oriladigan yerkarning sho‘rlanish darajasi va yer osti suvlarining holati va sifati bo‘yicha tizimli monitoring olib boradi, ma’lumotlarni davriy ravishda tahlil qiladi;

irrigatsiya tizimi kanallari va kollektorlarda suvning sifati bo‘yicha monitoring olib boradi;

sug‘oriladigan yerkarning meliorativ kadastrini hamda suv va tuz balanslarini ishlab chiqadi;

qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga yerkarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi hamda ijrosi bo‘yicha nazorat olib boradi;

magistral, tumanlararo va xo‘jaliklararo kollektorlar hamda kollektor-drenaj tarmoqlari, ulardagи gidrotexnik inshootlarning texnik holati bo‘yicha monitoring yuritadi, ularni ta’mirlash-tiklash hamda rekonstruksiya qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi;

meliorativ nasos stansiyalari hamda vertikal drenaj quduqlarining ish rejimini belgilaydi va ijrosi bo‘yicha monitoring olib boradi;

kollektor-drenaj tarmoqlari sohil bo‘yi mintaqasini muhofaza qilish choralarini ko‘radi;

erlarning meliorativ holati, irrigatsiya tizimi kanallari va kollektorlar suvining holati va sifatini nazorat qilishga raqamli va geoaxborot texnologiyalarini joriy qiladi;

suv iste’molchilar uyushmalari, fermer xo‘jaliklar, klasterlar va boshqa suv iste’molchilariga ularning kollektor-drenaj tarmoqlaridan maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beradi;

erlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha ustuvor loyihalarni aniqlash hamda hududiy dasturlarni shakllantirishda ishtiroy etadi va hududiy bo‘linmalarga takliflar beradi;

kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarining sifati bo‘yicha monitoring olib boradi;

sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash sohasiga ilm-fan yutuqlarini, geoaxborot texnologiyalari bo‘yicha ilg‘or tajribalarni, shuningdek, innovatsion usullarni joriy qiladi;

kollektor-drenaj tarmoqlaridan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida foydalanish bo‘yicha takliflarni tayyorlaydi va hududiy bo‘linmalarga kiritadi;

kollektor-drenaj tarmoqlaridan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida foydalanish bo‘yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashda va monitoring olib borishda ishtiroy etadi.

6-§. Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari

21. Quyidagilar magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Vazirlikka va hududiy bo‘linmalarga yuklagan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta’minalashda ishtiroy etish;

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan hamkorlik qilish;

magistral kanallar (tizimlar) va ulardagi gidrotexnika inshootlarini texnik soz holatda saqlash, ulardan foydalanish qoidalariga qat’iy amal qilish hamda xavfsiz va ishonchli ishlashini ta’minlash;

magistral kanallar (tizimlar) va ulardagi gidrotexnika inshootlarini boshqarishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomatlashtirish;

svuning hisobi va hisobotini yuritish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, svuning hisobi bo‘yicha shaffof tizimni yaratish;

magistral kanallar (tizimlar) va ulardagi gidrotexnika inshootlarini kompleks modernizatsiyalash, fan-texnika yutuqlari, svuni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribani joriy qilish;

suv resurslarini boshqarish tamoyillari va tizimini takomillashtirish, suvdan tejamli va oqilona foydalanishni ta’minlash, magistral kanal va ulardagi gidrotexnika inshootlarini modernizatsiyalash choralarini ko‘rish.

22. Quyidagilar magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalarining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

magistral kanallar (tizimlar) va ulardagi gidrotexnika inshootlarining texnik holatini tizimli ravishda o‘rganib boradi va ularni soz holatda saqlaydi;

magistral kanallar (tizimlar) va ulardagi gidrotexnika inshootlarining ulardan foydalanish qoidalariga qat’iy amal qilgan holda xavfsiz va ishonchli ishlashini ta’minlaydi;

magistral kanallar (tizimlar) va ulardagi gidrotexnika inshootlarini boshqarishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomatlashtirish bo‘yicha Vazirlik va hududiy bo‘linmalarga takliflar beradi hamda belgilangan tartibda ijrosini tashkil qiladi;

gidropostlarni texnik soz holatda saqlaydi, ularni takomillashtirib boradi, svuning hisobi va hisobotini yuritadi;

svuning hisobi va hisobotini yuritishga raqamli texnologiyalarni joriy qiladi, svuning hisobi bo‘yicha shaffof tizimni amalga oshiradi;

suvdan foydalanish bo‘yicha tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi, suv resurslarini Vazirlik va hududiy bo‘linmalar tomonidan tasdiqlangan suvdan foydalanish rejalar bo‘yicha suv xo‘jaligining foydalanuvchi tashkilotlariga yetkazib beradi;

magistral kanallar (tizimlar)ga o‘rnatilgan nasos stansiyalarini ishlatish rejimlarini belgilangan tartibda kelishadi hamda ijrosini ta’minlaydi;

umumiy suv xo‘jaligi ahvolini hisobga olgan holda suvdan foydalanish rejalariga tuzatishlar kiritish bo‘yicha Vazirlikka, hududiy bo‘linmalarga takliflar kiritadi;

magistral kanallar (tizimlar), ulardagi gidrotexnika inshootlarini va suv resurslarini oqilona boshqarish uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan bo‘linmalarni (alohida gidrouchastkalar, ishlab chiqarish bazalari va boshqalar) tashkil etadi;

ajratilgan budjet mablag‘lari va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

7-§. Irrigatsiya tizimi boshqarmalarining asosiy vazifalari va funksiyalari

23. Quyidagilar irrigatsiya tizimi boshqarmalarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Vazirlikka va hududiy bo‘linmalarga yuklagan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta’minlashda ishtirok etish;

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan hamkorlik qilish;

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarini texnik soz holatda saqlash, ulardan foydalanish qoidalariga qat’iy amal qilish hamda xavfsiz va ishonchli ishlashini ta’minlash;

yirik irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarini boshqarishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomatlashtirish;

svuning hisobi va hisobotini yuritish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish, svuning hisobi bo‘yicha shaffof tizimni yaratish;

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarini kompleks modernizatsiyalash, fan-texnika yutuqlari, svuni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalarni joriy qilish;

svu resurslarini boshqarish tamoyillari va tizimini takomillashtirish, suvdan tejamli va oqilona foydalanishni ta’minlash, irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarini modernizatsiyalash choralarini ko‘rish.

24. Quyidagilar irrigatsiya tizimi boshqarmalarining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarining texnik holatini tizimli ravishda o‘rganib boradi va ularni soz holatda saqlaydi;

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarining ulardan foydalanish qoidalariga qat’iy amal qilgan holda xavfsiz va ishonchli ishlashini ta’minlaydi;

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarini boshqarishni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida avtomatlashtirish bo‘yicha hududiy bo‘linmalarga takliflar beradi hamda belgilangan tartibda ijrosini tashkil qiladi;

gidropostlarni texnik soz holatda saqlaydi, ularni takomillashtirib boradi, svuning hisobi va hisobotini yuritadi;

svuning hisobi va hisobotini yuritishga raqamli texnologiyalarni joriy qiladi, svuning hisobi bo‘yicha shaffof tizimni amalgalash oshiradi;

svudan foydalanish bo‘yicha tegishli shartnomalarni belgilangan tartibda rasmiylashtiradi, svu resurslarini hududiy bo‘linmalar tomonidan tasdiqlangan suvdan foydalanish rejalar bo‘yicha tumanlar irrigatsiya bo‘limlari va boshqa suvdan foydalanuvchilarga yetkazib beradi;

irrigatsiya tizimi kanallariga o‘rnatilgan nasos stansiyalarini ishlatish rejimlarini belgilangan tartibda kelishadi hamda ijrosini ta’minlaydi;

umumi suv xo‘jaligi ahvolini hisobga olgan holda suvdan foydalanish rejalariga tuzatishlar kiritish bo‘yicha hududiy bo‘linmalarga takliflar kiritadi;

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarini va suv resurslarini oqilona boshqarish uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo‘limgan bo‘linmalarni (alohida gidrouchastkalar, ishlab chiqarish bazalari va boshqalar) tashkil etadi;

ajratilgan budjet mablag‘lari va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

8-§. Tumanlar irrigatsiya bo‘limlarining vazifalari va funksiyalari

25. Tumanlar irrigatsiya bo‘limlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Vazirlikka va hududiy bo‘linmalarga yuklagan vazifalar va funksiyalar samarali bajarilishini ta’minlashda ishtirok etish;

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan hamkorlik qilish;

tuman suv xo‘jaligi tizimini kompleks modernizatsiyalash, fan-texnika yutuqlari, suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribani joriy qilishga yo‘naltirilgan yagona suv xo‘jaligi siyosatini amalga oshirish;

suv resurslarini boshqarish tamoyillari va tizimini takomillashtirish, ulardan tejamli va oqilona foydalanishni ta’minlash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish choralarini ko‘rish;

tumanlar suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi va autsorsingni joriy qilishda ishtirok etish;

tumanlar suv xo‘jaligi obyektlarida suvning hisobi va hisobotini yuritishga raqamli texnologiyalarini joriy qilish.

26. Quyidagilar tumanlar irrigatsiya bo‘limlarining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda qatnashadi;

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlarining texnik holatini tizimli ravishda o‘rganib boradi, ularni soz holatda saqlaydi va ishonchli ishlashini ta’minlaydi;

qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy etish ishlarini muvofiqlashtiradi;

suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish va ulardan oqilona foydalanishni, ularning samaradorligini oshirishni, suvdan foydalanish va suv iste’molining innovatsion texnologiyalarini va mexanizmlarini joriy etishni ta’minlaydi;

suv iste’molchilari uyushmalariga suvni boshqarish va suv xo‘jaligi obyektlaridan samarali foydalanishda ko‘maklashadi, suv xo‘jaligi obyektlarini ta’mirlash-tiklash va rekonstruksiya qilish ishlarini muvofiqlashtiradi;

suv iste’molchilari uyushmalariga suv iste’moli bo‘yicha shartnomalar tuzish, sug‘orish tarmoqlarini suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlash ishlariga ko‘maklashadi va muvofiqlashtiradi;

suv iste’molchilariga ilmiy asoslangan sug‘orish rejimlarini, tomchilatib sug‘orish tizimi va suvni tejaydigan boshqa sug‘orish texnologiyalarini joriy etishni tashkil qilishga ko‘maklashadi;

sug‘orish tarmoqlarini ta’mirlash va ularni rivojlantirishni, shuningdek, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy etishni muvofiqlashtiradi;

suv resurslaridan foydalanishni tahlil qiladi va tuman bo‘yicha suv olish limitlarini belgilash, suvdan foydalanuvchilar va suv iste’molchilarining suvdan tejab foydalanishni rag‘batlantirish bo‘yicha hududiy bo‘linmalarga takliflar kiritadi;

tuman suv xo‘jaligi obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha konsepsiyalar, strategiyalar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda ishtirok etadi;

o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmini va qarzdorliklarning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va kengaytirish asosida suv iste’molchilari va suv iste’molchilari uyushmalari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

suv iste’molchilari va ularga xizmat ko‘rsatuvchi suv iste’molchilari uyushmalari o‘rtasida tuzilgan shartnomalar bajarilishi monitoringini yuritadi;

tuman irrigatsiya bo‘limi rahbar va mutaxassislari, shu jumladan, suv iste’molchilari uyushmalari rahbarlari va mutaxassislarining malakasini oshirishni tashkil qilishga ko‘maklashadi;

suv xo‘jaligi sohasidagi oliy ta’lim va professional ta’lim muassasalari bilan talabalar va o‘quvchilarning o‘quv-tanishish hamda o‘quv-ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishda hamkorlik qiladi;

tuman suv xo‘jaligi obyektlaridan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida foydalanish bo‘yicha takliflarni tayyorlaydi va hududiy bo‘linmalarga kiritadi;

tuman suv xo‘jaligi obyektlaridan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida foydalanish bo‘yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashda va monitoring olib borishda ishtirok etadi.

4-bob. Vazirlilik va uning hududiy bo‘linmalarining huquqlari va majburiyatları

1-§. Vazirlikning huquqlari va majburiyatları

27. Vazirlilik o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga va Vazirlar Mahkamasiga qonunchilik hujjatlari loyihalarini, shuningdek, Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda kiritish;

davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan Vazirlilik vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun zarur bo‘ladigan ma’lumotlarni belgilangan tartibda so‘rash va olish;

Vazirlik, hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlarga tegishli davlat mulkini o‘zining tashkiliy tuzilmasidagi bir bo‘linmadan boshqa bir bo‘linmaga tekin foydalanish huquqi bilan belgilangan tartibda o‘tkazish;

Vazirlik, hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari tomonidan suv xo‘jaligi sohasidagi faoliyati asosiy ko‘rsatkichlarining bajarilishini hisobga olgan holda xodimlarni belgilangan tartibda moddiy rag‘batlantirish;

Vazirlar Mahkamasiga, davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga Vazirlilik vakolati doirasiga kiradigan masalalar bo‘yicha takliflar kiritish;

Vazirlik vakolati doirasiga kiradigan masalalar bo‘yicha belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha xalqaro munosabatlarda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalash;

Vazirlikka kelishish uchun kiritilgan qonunchilik hujjatlari loyihalari va takliflar bo‘yicha o‘z xulosalarini berish;

suv manbalarining suvlilik darajasi o‘zgargan holatlarda suv olish limitlariga tuzatishlar kiritish;

limitdan ortiqcha suv olinganda, suv resurslaridan nooqilona va xo‘jasizlarcha foydalilanilgan hollarda suv berishning vaqtincha to‘xtatilishi to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

suv qonunchiligi, suvdan foydalanish va suv iste’moli tartiblari buzilgan hollarda mansabdor shaxslar va fuqarolarga nisbatan qonunchilik hujjatlari doirasida chora ko‘rish yuzasidan taklif kiritish;

suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanganlik uchun suvdan foydalanuvchilar va suv iste’molchilarini iqtisodiy rag‘batlantirishni tashkil etish;

yuklangan vazifalar doirasida bevosita yoki hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar orqali xorijiy soha tashkilotlari hamda ilmiy va ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish;

suv xo‘jaligi sohasidagi joriy va strategik vazifalarni yoritish uchun belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

binolarga xizmat ko‘rsatish, xo‘jalik inventarlari va ashyolarini, avtotransport, aloqa vositalari, hisoblash, kompyuter va ofis jihozlarini saqlash va ishlatish, dasturiy ta’mintoni sotib olish uchun belgilangan tartibda shartnomalar tuzish;

Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalarni hal etishga ilmiy muassasalar, olimlar va mutaxassislarini, shu jumladan, xorijiy mutaxassislarini shartnoma asosida jalb qilish;

Vazirlik va uning tizimiga kiradigan tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik mukofotlari, ko‘krak nishonlari va faxriy yorliqlarini belgilangan tartibda ta’sis etish va suv xo‘jaligi sohasidagi ilg‘or xodimlarni ular bilan taqdirlash;

suv xo‘jaligi sohasida munosib fidokorlik va mehnatsevarlik ko‘rsatgan, o‘zining kasbiy faoliyatida yuksak natijalarga erishgan xodimlar nomzodlarini belgilangan tartibda davlat mukofotlariga taqdim etish.

Vazirlik qonunchilik hujjatlariiga asosan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

28. Vazirlik:

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi hamda suv xo‘jaligi sohasida samarali davlat siyosati amalga oshirilishi;

Vazirlik faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishning so‘zsiz ta’milanishi;

Vazirlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga va Vazirlar Mahkamasiga kiritiladigan qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihalarini sifatli ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari o‘z vaqtida bajarilish sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

suv xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar, chora-tadbirlar rejalar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarni amalga oshirish, shuningdek, suv xo‘jaligi sohasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va muammolarning hal etilishi uchun javobgardir.

2-§. Vazirlik markaziy apparatining huquqlari va majburiyatları

29. Vazirlikning markaziy apparati o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlardan Vazirlikning markaziy apparatida ko‘rib chiqiladigan masalalar hamda qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihibarini ishlab chiqish hamda tahlil qilish uchun zarur bo‘ladigan materiallar va ma’lumotlarni talab qilish va olish;

Vazirlikda ko‘rib chiqiladigan masalalarni aniqlashtirish, axborot va tahliliy materiallarni, shuningdek, qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihibarini tayyorlash uchun Vazirlikning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari rahbarlari va vakillarini zarur hollarda belgilangan tartibda jalg qilish, ushbu maqsadlar uchun ekspert va ishchi guruqlar tuzish;

hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlardan ular tomonidan kiritilgan qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihibarining qayta tayyorlanishini talab qilish, zarur hollarda hujjatlarni qaytadan ishlab chiqishga qaytarish;

hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari va vakillari ishtirokida yig‘ilishlar o‘tkazish;

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq va tezkor hal etish talab etiladigan masalalar bo‘yicha hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlariga belgilangan tartibda topshiriqlar berish;

hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini va ular tomonidan qonunchilik hujjatlari talablari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari hamda Vazirlik buyruqlari va uning rahbariyati topshiriqlarining bajarilishini belgilangan tartibda o‘rganish va tekshirish.

Vazirlikning markaziy apparati qonunchilik hujjatlariga asosan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

30. Vazirlikning markaziy apparati:

Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlari bilan birgalikda Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

Vazirlik faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlash uchun Vazirlik markaziy apparati bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etish;

Vazirlik tomonidan Vazirlar Mahkamasini va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihibarining sifati va ekspertizadan o‘tkazilganligi hamda Vazirlik tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar ijro etilishi;

hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan o‘zining faoliyati sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari, ish va chora-tadbirlar rejali, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning amalga oshirilishini tashkil etish uchun javobgardir.

3-§. Vazirlik hududiy bo‘linmalarining huquqlari va majburiyatları

31. Vazirlikning hududiy bo‘linmalari o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo‘ladigan ma’lumotlarni idoraviy mansub tashkilotlardan, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan belgilangan tartibda so‘rash va olish;

o‘z vakolatlari doirasiga kiradigan sohadagi muhim muammolarning yechimlari bo‘yicha takliflar tayyorlash va ularni ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartibda idoralararo ishchi guruhlar tashkil qilish;

o‘z vakolatlari doirasidagi masalalar bo‘yicha Vazirlikka, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritish;

suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha kelishish uchun kiritilgan qonunchilik hujjatlari loyihalari va takliflar bo‘yicha xulosalar berish;

suv qonunchiligin buzganligi uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo‘yicha belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza kiritish.

Hududiy bo‘linmalar qonunchilik hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

32. Hududiy bo‘linmalar:

hududiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalash;

hududiy bo‘linmalarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishini ta’minalash;

Vazirlik va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga kiritiladigan qonunchilik hujjatlar loyihalari va takliflarning sifati;

Vazirlik va mahalliy ijro etuvchi davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning tegishlicha bajarilishi sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

tumanlarda (shaharlarda) aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqr tahlil qilish va umumlashtirish asosida hududiy bo‘linmalarga takliflar tayyorlash;

irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha hududiy dasturlar, choratadbirlar rejalar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali bajarilishi uchun mas’uldir.

4-§. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarining huquq va majburiyatlar

33. Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan materiallarni hududiy bo‘linmalarning idoraviy mansub tashkilotlari, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan belgilangan tartibda so‘rab olish;

o‘z vakolati doirasiga kiradigan sohadagi muhim muammolarning yechimlari bo‘yicha takliflar tayyorlash va ularni ko‘rib chiqish uchun belgilangan tartibda idoralararo ishchi guruhlar tashkil qilish;

o‘z vakolatlari doirasidagi masalalar bo‘yicha hududiy bo‘linmalarga ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritish;

suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha kelishish uchun kiritilgan qonunchilik hujjatlari loyihalari va takliflar bo‘yicha xulosalar berish;

o‘z faoliyati uchun kundalik zarur bo‘lgan materiallar, asbob-uskunalar va jihozlarni belgilangan tartibda qonunchilik hujjatlari talablariga asosan xarid qilish;

suv qonunchilagini buzganligi uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza kiritish.

Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari qonunchilik hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

34. Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari:

hududiy bo'linmalar bilan birgalikda ularga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

Vazirlik hududiy bo'linmalarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minlash;

hududiy bo'linmalar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga kiritiladigan taklif va hujjatlar loyihamalarining sifati;

hududiy bo'linmalar tomonidan qabul qilingan buyruqlarning tegishlicha bajarilishi sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish va umumlashtirish asosida suv xo'jaligini rivojlantirish to'g'risida takliflar tayyorlash;

suv xo'jaligini rivojlantirish va muammoli masalalarni hal etish bo'yicha hududiy dasturlar, chora-tadbirlar rejali, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali bajarilishi uchun mas'uldir.

5-§. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari huzuridagi meliorativ ekspeditsiyalarning huquq va majburiyatları

35. Meliorativ ekspeditsiyalar o'zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni hududiy bo'linmalar, xo'jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan belgilangan tartibda so'rash va olish;

o'z vakolatlari doirasiga kiradigan sohadagi muhim muammolarning yechimlari bo'yicha takliflar tayyorlash va ularni ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda idoralararo ishchi guruhlardan tashkil qilish;

o'z vakolatlari doirasidagi masalalar bo'yicha hududiy bo'linmalarga ko'rib chiqish uchun takliflar kiritish;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalari bo'yicha kiritilgan qonunchilik hujjatlari loyihamari va takliflar bo'yicha xulosalar berish;

sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ustuvor loyihalarni aniqlash va amalga oshirish yuzasidan takliflar kiritish;

erlarning meliorativ holatini yaxshilash, kollektor-drenaj tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini buzganligi uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza kiritish.

Meliorativ ekspeditsiyalar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

36. Meliorativ ekspeditsiyalar:

hududiy bo'linmalar bilan birgalikda yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash;

meliorativ ekspeditsiyalar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishini ta'minlash;

hududiy bo'linmalarga kiritiladigan taklif va hujjatlar loyihamalarining sifati;

hududiy bo‘linmalar tomonidan qabul qilingan buyruqlarning tegishlicha bajarilishi sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish va umumlashtirish asosida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash to‘g‘risida takliflar tayyorlash;

sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha hududiy dasturlar, chora-tadbirlar rejalar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

6-§. Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalarining huquq va majburiyatları

37. Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan materiallarni hududiy bo‘linmalar, xo‘jalik birlashmalari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan belgilangan tartibda so‘rab olish;

suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha kelishish uchun kiritiladigan qonunchilik hujjatlari loyihalari va boshqa takliflar yuzasidan xulosalar berish;

boshqa irrigatsiya tizimlari, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash va ta‘mirlash ishlarini shartnomalar bo‘yicha bajarish;

magistral kanallar va ulardagi gidrotexnika inshootlarini ishlatish qoidalari hamda suvdan foydalanish va suv iste’moli tartibi buzilganligi uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo‘yicha belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza kiritish;

umumiy suv xo‘jaligi ahvolini hisobga olgan holda suvdan foydalanish rejalariga tuzatishlar kiritish bo‘yicha hududiy bo‘linmalarga takliflar kiritish;

favqulorra holatlarda magistral kanal boshqarmasining xizmat ko‘rsatish hududida joylashgan barcha irrigatsiya tizimlari boshqarmalari, suvdan foydalanuvchilar hamda boshqa tashkilotlarni kutilayotgan salbiy holatlarning oldini olish va ro‘y bergen hodisalarni bartaraf etish uchun belgilangan tartibda jalb qilish.

Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

38. Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari:

hududiy bo‘linmalar bilan birgalikda ularga yuklangan vazifa va funksiyalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash;

hududiy bo‘linmalarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishini ta‘minlash;

Vazirlik va uning hududiy bo‘linmalariga kiritiladigan taklif va hujjatlar loyihalarining sifati;

Vazirlik va uning hududiy bo‘linmalarini tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning bajarilishi sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish va umumlashtirish asosida takliflar tayyorlash;

irrigatsiyani rivojlantirish va muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha hududiy dasturlar, chora-tadbirlar rejalar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

7-§. Irrigatsiya tizimi boshqarmalarining huquq va majburiyatları

39. Irrigatsiya tizimi boshqarmalari o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun zarur bo‘ladigan ma’lumotlarni hududiy bo‘linmalar, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlaridan belgilangan tartibda so‘rash va olish;

o‘z vakolatlariga kiradigan masalalar bo‘yicha hududiy bo‘linmalarga ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritish;

suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha kiritilgan qonunchilik hujjatlari loyihalari va takliflarni ko‘rib chiqish va xulosalar berish;

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlari hamda suvdan foydalanish qoidalarini buzganligi uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo‘yicha belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza kiritish.

favqulodda holatlarda irrigatsiya tizimi boshqarmasining xizmat ko‘rsatish hududida joylashgan barcha irrigatsiya tizimlari boshqarmalari, suvdan foydalanuvchilar hamda boshqa tashkilotlarni kutilayotgan salbiy holatlarning oldini olish va ro‘y bergen hodisalarni bartaraf etish uchun belgilangan tartibda jalb qilish;

Irrigatsiya tizimi boshqarmalari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

40. Irrigatsiya tizimi boshqarmalari:

hududiy bo‘linmalar bilan birgalikda ularga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

hududiy bo‘linmalarning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishini ta’minlash;

hududiy bo‘linmalarga kiritiladigan taklif va hujjatlar loyihalarining sifati;

hududiy bo‘linmalar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarolarning bajarilishi sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish va umumlashtirish asosida suv xo‘jaligini rivojlantirish to‘g‘risida takliflar tayyorlash;

suv xo‘jaligini rivojlantirish va muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha hududiy dasturlar, chora-tadbirlar rejali, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarning samarali bajarilishi uchun javobgardir.

8-§. Tumanlar irrigatsiya bo‘limlarining huquq va majburiyatları

41. Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolatiga kiradigan masalalarni hal etish uchun zarur bo‘ladigan ma’lumotlarni hududiy bo‘linmalar, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlaridan belgilangan tartibda so‘rash va olish;

o‘z vakolatlariga kiradigan masalalar bo‘yicha hududiy bo‘linmalarga va tumanlar (shaharlar) hokimliklariga ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritish;

suv resurslaridan foydalanish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalalari bo‘yicha kiritilgan qonunchilik hujjatlari loyihalari va takliflar bo‘yicha xulosalar berish;

irrigatsiya tizimi kanallari va ulardagi gidrotexnika inshootlari hamda suvdan foydalanish qoidalarini buzganligi uchun aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo‘yicha belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza kiritish.

Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

42. Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari:

o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

hududiy bo‘linmalarga kiritiladigan taklif va hujjatlar loyihalarining sifati;

hududiy bo‘linmalar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning bajarilishi sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda tumanlarning (shaharlarning) infratuzilmasini kompleks rivojlantirishga to‘sinqilik qiladigan tizimli kamchiliklarni aniqlash, tumanlar (shaharlar) suv xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish uchun takliflar tayyorlash va kiritish;

tumanlarda (shaharlarda) irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha dasturlar, chora-tadbirlar rejalar, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirish uchun javobgardir.

5-bob. Vazirlilik rahbariyatining asosiy funksional majburiyatları

43. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining asosiy funksional majburiyatları hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlar talablariga rioya etish;

Vazirlilik faoliyatining umumiyligi boshqaruvini amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga muvofiq Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini ta’minlash;

Vazirlilik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari bilan tasdiqlangan konsepsiylar, kompleks dasturlar va kompleks chora-tadbirlarning bajarilishi tanqidiy va chuqur tahlil qilib borish;

Vazirlilik, uning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari faoliyatiga oid prognoz ko‘rsatkichlarning so‘zsiz bajarilishini ta’minlash uchun amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo‘linmalari va Vazirlar Mahkamasini, shuningdek, tegishli davlat boshqaruv organlari va boshqa tashkilotlar bilan Vazirlilik faoliyati sohasiga kiradigan masalalar bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilish, Vazirlar Mahkamasini va uning Rayosati majlislarida masalalarning ko‘rib chiqilishida ishtiroy etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, uning o‘rindbosarlari va maslahatchilari topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;

Vazir o‘rindbosarlarining faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishilishini baholashning asosiy mezonlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rindbosari bilan kelishgan holda belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta’minlash;

o‘z o‘rinbosarlari va Vazirlikning boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, Vazirlik faoliyatining alohida qismlariga rahbarlik qilishi uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini belgilash;

Vazirlik faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, Vazirlik va o‘z o‘rinbosarlarining davriy ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi nazorat qilinishini ta’minlash;

qonunchilik hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari hamda topshiriqlari ijrosini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166сон Farmoni talablariga qat’iy rioya etish;

Vazirlik faoliyati doirasida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomini mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son, “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun tarkibiy bo‘linmalar, shuningdek, hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish;

Vazirlik xodimlarini muntazam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

Vazirlik tizimida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning mutaxassisligiga talablarni belgilash va samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, Vazirlikning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlarning bo‘sh o‘rinlariga tavsiya qilingan xodimlarning, shuningdek, Vazirlikka ishga qabul qilinayotgan boshqa xodimlarning kasbiy mahorati va bilim darajasi, yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy fazilatlarini ta’minlashga qaratilgan choralar ko‘rish;

suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha qonunchilik hujjatlari loyihibarini sifatli ishlab chiqilishini, “Normativ-huquqiy hujjatlari to‘g‘risida”gi va “Qonun loyihibarini tayyorlash va ularni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti talablariga qat’iy rioya qilgan holda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlash, ularni Vazirlar Mahkamasining rahbariyati huzurida himoya qilish hamda Vazirlar Mahkamasining apparatida ishlab chiqilishida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida ko‘rib chiqilishida ishtiroyk etish;

Vazirlikning qonun loyihamalariga doir faoliyatini “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi va “Qonun loyihamalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 17-oktabrdagi 345-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qonun loyihamalariga doir faoliyatining namunaviy reglamentiga muvofiq tashkil etish;

Vazirlik faoliyatiga kiradigan masalalar bo‘yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, zarur bo‘lgan hollarda boshqa vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tegishli qarorlar qabul qilish;

Vazirlikka kiritilgan takliflar va qonunchilik hujjatlar loyihamalarining to‘liq va bat afsil ko‘rib chiqilishini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamentida va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamentida belgilangan muddatlarda kelishilishini (viza qo‘yilishini) ta’minalash;

Vazirlik rahbarlari va xodimlarining xizmat safarlarini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansabdar shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralar to‘g‘risida” 2014-yil 5-martdagي PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarining O‘zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdar shaxslarning shaxsiy mas’uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagи PQ-3170-son qarorlari talablariga to‘liq mos ravishda tashkil etish, xizmat safarlarining asoslangan, samarali va natijali bo‘lishini, xizmat safari uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minalash;

Vazir o‘rinbosarlari, tarkibiy va hududiy bo‘linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlarning rahbarlari faoliyatining samarali va natijalilagini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, ularning shaxsiy hisobotlarini Vazirlikning Hay’at majlislarida eshitish, yakuniy natijalar bo‘yicha zarur choralar ko‘rish;

Vazirlik xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etish, o‘zining o‘rinbosarlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida takliflar kiritish, ularning shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rish;

Vazirlik xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagи 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Vazirlik xodimlarining Odob-axloq na’munaviy qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minalashni nazorat qilish;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-419-son Qonuni talablariga muvofiq Vazirlik tizimida korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, huquq amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘li bilan ularni aniqlash, tahlil qilish, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar va shartlarni bartaraf etish;

Vazirlik, uning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatining zamонави shakllarda tashkil etilishini ta’minalash;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-maydagги 341-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlarida, davlat muassasalarida va davlat ishtirokidagi tashkilotlarda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga muvofiq samarali tashkil etish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot o‘rnatish, shaxsan qabul qilishning muntazam ravishda o‘tkazilishini, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini joylarga borib qabul qilishning belgilangan muddatda va tartibda amalga oshirilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiga jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan arizalarning o‘z vaqtida va to‘liq ko‘rib chiqilishida Vazirlik rahbarlari va xodimlarining faol ishtirokini ta’minlash;

davlat sirlari va maxfiy axborotlar toifalariga kiritilgan axborotlar bilan ishslashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish;

shtat birliklarining belgilangan soni hamda O‘zbekiston Respublikasi budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan markaziy apparat va idoraviy mansub tashkilotlarning xarajatlar smetasi asosida Vazirlik markaziy apparatining shtat jadvalini tasdiqlash;

Vazirlikning hududiy bo‘linmalari nizomlarini va idoraviy mansub tashkilotlarning ustavlarini belgilangan tartibda tasdiqlash;

Vazirlik markaziy apparati xodimlari, uning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlari bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

Vazirlik, uning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarning mansabdor shaxslari uchun majburiy bo‘lgan buyruq va ko‘rsatmalar berish hamda ularning bajarilishini belgilangan tartibda nazorat qilish;

zaruriyat bo‘lganda, Vazirlik markaziy apparati, hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarning tashkiliy-shtat tuzilmalariga belgilangan shtat birliklari doirasida o‘zgartirishlar kiritish;

suv xo‘jaligi sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta’minlash, tegishli vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

suv xo‘jaligi sohasida kadrlarni tayyorlash, suv xo‘jaligi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bo‘yicha choralar ko‘rish;

suv xo‘jaligi xodimlari va mutaxassislarini ularning uzoq va samarali faoliyat ko‘rsatganligi, alohida xizmatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlari bilan taqdirlash uchun belgilangan tartibda takliflar kiritilishini ta’minlash va tavsiyalar berish;

xorijiy investitsiyalar va texnik ko‘mak mablag‘larini jalb qilish hamda suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘lari hisobidan xorijiy investitsiya loyihalar amalga oshirilishini tashkil etish;

suv xo‘jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va autsorsingni joriy qilishni ta’minlash;

suv xo‘jaligi obyektlari boshqaruvini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilishni tashkil etish;

suv xo‘jaligida kapital qurilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor investitsiya loyihamalarini oshkoraliq asosida tanlash, ularning qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqishni hamda amalga oshirilishini nazorat qilish;

transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan foydalanish bo‘yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, shuningdek, suv xo‘jaligi sohasidagi xalqaro tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etish;

suv xo‘jaligi tizim tashkilotlari uchun yillik elektr energiyasi limitlarini taqsimlash.

Qonunchilik hujjatlari muvofiq Vazirga boshqa funksional majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

44. Vazir birinchi o‘rinbosarining asosiy funksional majburiyatlar quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

Vazir vaqtinchalik bo‘lmagan hollarda tegishli buyruq asosida Vazir vazifasini bajarish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish, bevosita boshqarish, xodimlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari bilan tasdiqlangan konsepsiylar, kompleks dasturlar va kompleks chora-tadbirlarning bajarilishini o‘zi boshqaradigan yo‘nalish bo‘yicha tanqidiy va chuqur tahlil qilib borish;

o‘z faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy mezonlarini ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan prognoz ko‘rsatkichlarning so‘zsiz bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rish, bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borish va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta’minlash;

qonunchilik hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari hamda topshiriqlari ijrosini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldaggi PF-6166-son Farmoni talablariga qat’iy rioya etish;

Vazirlik faoliyati doirasida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomini mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil

11-apreldagi PQ-2881-son va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun tarkibiy va hududiy bo‘linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish;

Vazirlik Hay’ati qarorlari, Vazirning buyruq va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalarda xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Vazirga takliflar kiritish, ularning kasbiy mahorati, bilim darajasi, amaliy tajribasi va yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy fazilatlari kafolatlanganligini ta’minlash, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, xodimlar zaxirasini shakkllantirish choralarini ko‘rish;

Vazirlikning Suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha Tarmoq ilmiy-texnik kengashiga rahbarlik qilish va uning faoliyatini muvofiqlashtirish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan qonunchilik hujjatlari loyihalarining to‘liq va sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti talablariga muvofiq qat’iy ravishda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlash, shuningdek, qonunchilik hujjatlar loyihalarining Vazirlar Mahkamasi apparatida ko‘rib chiqilishida Vazirning topshirig‘iga asosan ishtirok etish;

xizmat safarlariga borishni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralar to‘g‘risida” 2014-yil 5-martdagi PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarining O‘zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansabdor shaxslarning shaxsiy mas’uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagi PQ-3170-son qarorlari talablariga to‘liq mos ravishda tashkil etish, xizmat safarlarining asoslangan, samarali va natijali bo‘lishini, xizmat safari uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanimishini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari faoliyatining samarali va natijalilagini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilib borish, Vazirlik Hay’ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalari asosida zarur choralar ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha Vazirlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni Vazirga taqdim etish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomi javobgarlikka tortish bo‘yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarda qolishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida Vazirga takliflar kiritish, ularning funksional majburiyatlar va yuklangan vazifalarni bajarishi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Vazirlik xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagি 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Vazirlik xodimlarining Odob-axloq na'munaviy qoidalari talablariga rioya qilish, o'zi boshqaradigan tarkibiy bo'limmalar rahbarlari va xodimlari tomonidan ushbu qoidalarga rioya etilishini ta'minlash;

Vazirlik tizimida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-419-son Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa jinoyatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sharoit yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda tahlil qilish, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi va sifatini, ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish bo'yicha Vazirga takliflar kiritish;

davlat sirlari va maxfiy ma'lumotlar toifalariga kiritilgan axborotlar bilan ishslashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish;

suv xo'jaligi sohasida vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

suv xo'jaligida sanoatni rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritish;

suv xo'jaligi sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, xalqaro va xorijiy moliya institutlari bilan hamkorlikda loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishda ishtirok etish, ularni modernizatsiyalash, rekonstruksiya qilish va texnik qayta jihozlash maqsadida investitsiya dasturlariga kiritish uchun suv xo'jaligini istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ko'rib chiqish, ular shakllantirilishini ta'minlash;

investitsiyalarni jalb qilish maqsadida suv xo'jaligi va melioratsiya sohasida davlatlararo masalalarini muhokama qilish va hal etishda qatnashish;

suv resurslarini havza tamoyili asosida boshqarishni ta'minlash va suvni cheklangan tarzda ishlatish hamda undan foydalanish tartibini amalda ro'yobga chiqarishni, suv resurslari balansini ishlab chiqish, davlat suv kadastrining "Suvdan foydalanish" bo'limini hamda suvning hisobi va hisobotini yuritish, barcha manbalarning suv resurslari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish va rivojlantirishni ta'minlash;

Vazirlik tizimidagi suv omborlari, sel-suv omborlari, magistral kanallar va boshqa suv xo'jaligi obyektlarini texnik soz holatda saqlash, ularning xavfsiz va ishonchli ishslashini ta'minlash hamda ularning muhofazasini tashkil etish;

Vazirlik tizimidagi suv omborlari, sel-suv omborlari, magistral kanallar va boshqa suv xo'jaligi obyektlari faoliyatini "Gidrotexnik inshootlarning xavfsizligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq tashkil etish;

suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish va ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat olib borish;

davlat nasos stansiyalari, ularda o'rnatilgan nasos agregatlari, sug'orish va meliorativ quduqlar, podstansiyalar, transformatorlar va elektr uzatish tarmoqlarini takomillashtirish ishlarini tashkil etish;

suv xo‘jaligi tizimida elektr energiyasidan samarali foydalanish, ularni iqtisod qilishni tahlil qilib borish va energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy qilishni tashkil etish;

vakolati doirasida sndlarga da’vo arizasi bilan murojaat qilish va sndlarda ishtirok etish uchun (vakillarga) ishonchnomalarni imzolash;

o‘z vakolati doirasida belgilangan tartibda ishlab chiqilgan boshqa hujjatlarni imzolash va tasdiqlash.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq Vazirning birinchi o‘rinbosariga boshqa funksional majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

45. Vazir o‘rinbosari — Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihibarini amalga oshirish agentligi (keyingi o‘rlarda — Agentlik) bosh direktorining asosiy funksional majburiyatlar quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlar talablariga rioya etish;

Vazir, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari vaqtinchalik bo‘lmagan hollarda tegishli buyruq asosida Vazir vazifasini bajarish;

Vazirlikning o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalari va Agentlik faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, ularning xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari bilan tasdiqlangan konsepsiylar, kompleks dasturlar va kompleks chora-tadbirlarning bajarilishini o‘zi boshqaradigan yo‘nalish bo‘yicha tanqidiy va chuqur tahlil qilib borish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar va Agentlik tomonidan prognoz ko‘rsatkichlarning so‘zsiz bajarilishini ta’minalash choralarini ko‘rish va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitib borish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar va Agentlik rahbari o‘rinbosarlarining ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta’minalash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari bajarilishini ta’minalash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomini mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasini va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son qaroriga, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-sod qaroriga asosan Vazirlikning o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalari faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarini amalga oshirish, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining topshiriqlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalashi uchun shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

o‘z faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy mezonlarini ishlab chiqish va ijrosini ta’minalash;

Vazirlik Hay'ati qarorlari, Vazirning buyruqlari va topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar va Agentlik rahbarining o‘rinbosarlarini tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Vazirga takliflar kiritish, ularning kasbiy mahorati, bilim darajasi, amaliy tajribasi va yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-mavniy fazilatlari kafolatlanganligini ta’minlash, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalarda xodimlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar va Agentlik tomonidan qonunchilik hujjatlari loyihalarinining to‘liq va sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, ularni Vazirning ko‘rib chiqishi va viza qo‘yishi uchun bat afsil ko‘rib chiqish va viza qo‘yish, ularning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti talablariga qat’iy muvofiq ravishda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlash, shuningdek, qonunchilik hujjatlari loyihalarinining Vazirlar Mahkamasining apparatida ko‘rib chiqilishida Vazirning topshirig‘iga asosan ishtirok etish;

xizmat safarlariga borishni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mansab dor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralar to‘g‘risida” 2014-yil 5-martdagি PQ-2142-son va “Xorijiy xizmat safarlarida bo‘lish samaradorligi va xorijiy delegatsiyalarning O‘zbekiston Respublikasiga tashriflarini tashkil etish uchun mansab dor shaxslarning shaxsiy mas‘uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 3-avgustdagи PQ-3170-son qarorlari talablariga to‘liq mos ravishda tashkil etish, xizmat safarlarining asoslangan, samarali va natijali bo‘lishini, xizmat safari uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanimishini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar va Agentlik rahbarlari va xodimlarining faoliyatining samarali va natijadorligini mutazam ravishda tanqidiy tahlil qilib borish, Vazirlik Hay'ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalari asosida zarur choralar ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar va Agentlik faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha Vazirlik faoliyatini shuningdek, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni Vazirga taqdim etish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar hamda Agentlik rahbar va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha, shu jumladan, ular egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida Vazirga takliflar kiritish, ularning funksional majburiyatlar va yuklangan vazifalarni bajarishi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalgalash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar va Agentlik rahbarlari va xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagи 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Odob-axloq na‘munaviy qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash;

Vazirlik tizimida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-419-son Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sharoit yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda tahlil qilish,

huquqni muhofaza qilish amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo‘li bilan ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat sirlari va maxfiy ma’lumotlar toifalariga kiritilgan axborotlar bilan ishlashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish;

suv xo‘jaligi sohasida vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirot etish;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishini tashkil etish;

suv xo‘jaligida kapital qurilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor investitsiya loyihamonlari oshkoraliq asosida tanlash, ularning qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish;

suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihamonlaring manzilli ro‘yxatlarini belgilangan tartibda tegishli vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda tasdiqlash;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqilishini, ekspertizadan o‘tkazilishini va bosh pudrat tashkilotlarini tanlov (tender) asosida aniqlashni hamda tegishli shartnomalar rasmiylashtirilishini tashkil qilish;

suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihamonlari ishlab chiqish hamda ekspertiza qilish, shuningdek, ularning xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishga xorijiy mutaxassislarini jalg qilish;

kapital qurilish loyihamonlari amalga oshirish yuzasidan tizimli monitoring yuritish, shuningdek, buyurtmachi va pudrat tashkilotlari tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minalash, loyihamonlari amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;

Agentlik xodimlarini (Bosh direktor o‘rinbosarlaridan tashqari) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

Agentlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan buyruqlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish, shuningdek, ularning ijrosini belgilangan tartibda nazorat qilish.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq Vazir o‘rinbosari — Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihamonlari amalga oshirish Bosh direktoriga boshqa funksional majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

46. Vazirning suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish va rivojlantirishga mas’ul bo‘lgan o‘rinbosarining asosiy funksional majburiyatlar quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlar talablariga rioya etish;

Vazir va Vazirning birinchi o‘rinbosari vaqtinchalik bo‘limgan hollarda tegishli buyruq asosida Vazir vazifasini bajarish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, xodimlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari bilan tasdiqlangan konsepsiylar, kompleks dasturlar va kompleks chora-tadbirlarning bajarilishini o‘zi boshqaradigan yo‘nalish bo‘yicha tanqidiy va chuqur tahlil qilib borish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan prognoz ko‘rsatkichlarning so‘zsiz bajarilishini ta’minlash va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borish;

o‘z faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy mezonlarini ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlarining bajarilishini tashkil qilish va monitoringini yuritishning amaliy tizimini yaratish, Vazirlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarни amalga oshirish, tarkibiy va hududiy bo‘linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlarining topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash uchun shaxsiy mas’uliyatni oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik Hay’ati qarorlari, Vazirning buyruq va topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalarda xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Vazirga takliflar kiritish, ularning kasbiy mahorati, bilim darajasi, amaliy tajribasi va yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy fazilatlari kafolatlanganligini ta’minlash, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, xodimlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan qonunchilik hujjatlar loyihibarining to‘liq va sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti talablariga muvofiq qat’iy ravishda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlash, shuningdek, qonunchilik hujjatlari loyihibarining Vazirlar Mahkamasi apparatida ko‘rib chiqilishida Vazirning topshirig‘iga asosan ishtirok etish;

xizmat safarlariga borishni qonunchilik hujjatlari talablariga to‘liq mos ravishda tashkil etish, xizmat safarlari asoslangan, samarali va natijali bo‘lishini, xizmat safari uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari faoliyatining samarali va natijaliligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilib borish, Vazirlik Hay’ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalari asosida zarur choralar ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan Vazirlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni Vazirga taqdim etish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida Vazirga takliflar kiritish, ularning funksional majburiyatlar va yuklangan vazifalarni bajarishi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Vazirlik xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga riosa etilishini ta'minlashni nazorat qilish, o'zi boshqaradigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlari tomonidan ushbu qoidalarga riosa etilishini ta'minlash;

Vazirlik tizimida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-419-son Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa jinoyatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sharoit yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda tahlil qilish, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo'li bilan ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat sirlari va maxfiy ma'lumotlar toifalariga kiritilgan axborotlar bilan ishslashda qonunchilikda belgilangan talablarga riosa qilish;

suv xo'jaligi sohasida vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirot etish;

svuni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish hududiy dasturlarini hududlarning tuproq-iqlim sharoitlari, ixtisoslashuvi hamda suv va boshqa zarur resurslar bilan ta'minlanganligini hisobga olgan holda ilmiy asosda ishlab chiqilishini tashkil qilish;

svuni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilish hududiy dasturlari ijrosini tashkil qilish va monitoring yuritish;

svuni tejaydigan texnologiyalar joriy qilishni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda Vazirga taqdim qilish;

svuni tejaydigan texnologiyalar joriy qilingan maydonlarning hisobini yuritish hamda davlat subsidiyalarini ajratish mexanizmini avtomatashtirish;

svuni tejaydigan texnologiyalarini qo'llash borasida ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish, suv xo'jaligi tashkilotlari bilan ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq Vazir o'rinbosariga boshqa funksional majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

47. Vazirning moliya-iqtisod yo'nalishiga mas'ul bo'lgan o'rinbosarining asosiy funksional majburiyatlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga riosa etish;

Vazir, Vazirning birinchi o'rinbosari vaqtinchalik bo'lmagan hollarda tegishli buyruq asosida Vazir vazifasini bajarish;

o'z faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishni baholashning asosiy mezonlarini ishlab chiqish va ijrosini ta'minlash;

o'zi boshqaradigan tarkibiy bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari bilan tasdiqlangan konsepsiylar, kompleks dasturlar va kompleks chora-tadbirlarning bajarilishini o'zi boshqaradigan yo'nalish bo'yicha tanqidiy va chuqur tahlil qilib borish;

o'zi boshqaradigan tarkibiy bo'linmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rish va ushbu ko'rsatkichlarga erishish

uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta’minlash;

qonunchilik hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari hamda topshiriqlari ijrosini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagagi PF-6166-son Farmoni talablariga qat’iy rioya etish;

Vazirlik faoliyati doirasida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek, ijro intizomini mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun tarkibiy bo‘linmalar, shuningdek, hududiy boshqarmalar va idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish;

Vazirlik Hay’ati qarorlari, Vazirning buyruqlari va topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalarda xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Vazirga takliflar kiritish, ularning kasbiy mahorati, bilim darajasi, amaliy tajribasi va yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy fazilatlari kafolatlanganligini ta’minlash, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, xodimlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan qonunchilik hujjatlar loyihibarining to‘liq va sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti talablariga muvofiq qat’iy ravishda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlash, shuningdek, qonunchilik hujjatlar loyihibarining Vazirlar Mahkamasi apparatida ko‘rib chiqilishida Vazirning topshirig‘iga asosan ishtirok etish;

xizmat safarlariga borishni qonunchilik hujjatlari talablariga to‘liq mos ravishda tashkil etish, xizmat safarlarasi ososlangan, samarali va natijali bo‘lishini, xizmat safari uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari faoliyatining samarali va natijalilagini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilib borish, Vazirlik Hay’ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalari asosida zarur choralar ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha Vazirlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni Vazirga taqdim etish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida Vazirga takliflar kiritish, ularning funksional majburiyatlar va yuklangan vazifalarni bajarishi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Vazirlik xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta‘minlashni nazorat qilish, o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari tomonidan ushbu qoidalarga rioya etilishini ta‘minlash;

Vazirlik tizimida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-419-son Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sharoit yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda tahlil qilish, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo‘li bilan ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat sirlari va maxfiy ma’lumotlar toifalariga kiritilgan axborotlar bilan ishlashda qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya qilish;

suv xo‘jaligi sohasida vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirop etish;

Vazirlik bo‘yicha qabul qilingan buyruqlar va boshqa amaliy hujjatlarning moliyaviy qismini tatbiq etishga rahbarlik qilish, Vazirlik va tizim tashkilotlari (respublika budgetidan moliyalashtiriladigan) faoliyati uchun moliyaviy shart-sharoitlar yaratish;

vakolati doirasida belgilangan moliyaviy va statistik hisobotlar qabul qilinishi, umumlashtirishini va o‘z vaqtida tegishli moliya organlariga taqdim etilishini nazorat qilish;

Vazirlik va respublika budgetidan moliyalashtiriladigan budget tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek, suv xo‘jaligi bilan bog‘liq xarajatlar smetalarini (markaziy apparatning tegishli boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida) tayyorlanishi, rahbariyat tasdig‘iga kiritilishi hamda ro‘yxatdan o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim qilinishini nazorat qilish;

suv xo‘jaligi sohasiga doir Davlat dasturlari va budget xarajatlarining maqsadli indikatorlarining ijrosini baholash ishlarini nazorat qilish;

Vazirlik va uning tarkibiga kiruvchi barcha tashkilotlarning budget va budgetdan tashqari mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanishining nazoratini ta‘minlash;

suv xo‘jaligi sohasiga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari, boshqa vazirliklar va idoralar bilan qo‘shma qarorlar, shuningdek, tegishli masalalar bo‘yicha yo‘riqnomalar va normativ hujjatlar loyihalari tayyorlanishini ta‘minlash;

Vazirlik va uning hududiy bo‘linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlarning iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlari, kelgusidagi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari hamda

ish maromining yuksalish rejalarini amalga oshirish borasida tashkiliy choralarni ko‘rish;

xodimlarning oylik maosh tarif miqdorlari va lavozim-mansab maoshlarini ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda tasdiqlanishini ta’minlash;

Vazirlik va uning hududiy bo‘linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va xodimlarning oylik ish haqini bosqichma-bosqich oshirish choralarini ko‘rish.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq Vazir o‘rinbosariga boshqa funksional majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

48. Vazirning davlat-xususiy sheriklik va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha maslahatchisining asosiy funksional majburiyatları quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va bevosita boshqarish, xodimlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari bilan tasdiqlangan konsepsiylar, kompleks dasturlar va kompleks chora-tadbirlarning bajarilishini o‘zi boshqaradigan yo‘nalish bo‘yicha tanqidiy va chuqur tahlil qilib borish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan prognoz ko‘rsatkichlarning so‘zsiz bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rish va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib borish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishi yuzasidan nazoratni ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlarining bajarilishini tashkil qilish va monitoringini yuritishning amaliy tizimini yaratish, Vazirlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarni amalga oshirish, tarkibiy va hududiy bo‘linmalar hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlarining topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash uchun shaxsiy mas’uliyatni oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik Hay’ati qarorlari, Vazirning buyruqlari va topshiriqlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalarda xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Vazirga takliflar kiritish, ularning kasbiy mahorati, bilim darajasi, amaliy tajribasi va yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy fazilatlari kafolatlanganligini ta’minlash, xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, xodimlar zaxirasini shakllantirish choralarini ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar tomonidan qonunchilik hujjatlar loyihalarining to‘liq va sifatli ishlab chiqilishini tashkil etish, ularni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Reglamenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamenti talablariga muvofiq qat’iy ravishda o‘z vaqtida Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlash, shuningdek, qonunchilik

hujjatlari loyihalaring Vazirlar Mahkamasi apparatida ko‘rib chiqilishida Vazirning topshirig‘iga asosan ishtirok etish;

xizmat safarlariga borishni qonunchilik hujjatlari talablariga to‘liq mos ravishda tashkil etish, xizmat safarları asoslangan, samarali va natijali bo‘lishini, xizmat safari uchun ajratiladigan mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ta’minlash;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari faoliyatining samarali va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilib borish, Vazirlik Hay’ati majlislarida ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, natijalari asosida zarur choralar ko‘rish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha Vazirlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni Vazirga taqdim etish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida Vazirga takliflar kiritish, ularning funksional majburiyatlar va yuklangan vazifalarni bajarishi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlashni nazorat qilish va ushbu qoidalarga rioya etilishini ta’minlash;

Vazirlik tizimida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-419-soni Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sharoit yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash hamda tahlil qilish, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yo‘li bilan ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

davlat sirlari va maxfiy ma’lumotlar toifalariga kiritilgan axborotlar bilan ishslashda qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilish;

suv xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

suv xo‘jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va autsorsingni joriy qilishni rivojlantirish;

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish va raqamlı texnologiyalarni joriy etishda xorijiy investitsiyalar va texnik ko‘mak mablag‘larini jalg qilish;

suv xo‘jaligi obyektlari boshqaruvini raqamlı texnologiyalar asosida avtomatlashtirish;

suv xo‘jaligi obyektlarida suvning hisobi va elektr energiyasi iste’molini raqamlı texnologiyalar asosida “onlayn” nazorat qilish orqali suvdan foydalanish shaffofligini ta’minlash hamda samaradorligini oshirish;

er usti suvlaridan foydalanish bo‘yicha davlat suv kadastrining “Suvdan foydalanish” bo‘limini yuritishni zamonaviy texnologiyalar yordamida takomillashtirish;

suv xo‘jaligiga doir axborot resurslarini, jumladan, dasturiy ta’minotlar, mobil ilovalar, ma’lumotlar bazasi va veb sahifalarni yaratish hamda ular takomillashtirilishini tashkil etish.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq Vazir maslahatchisiga boshqa funksional majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

49. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarining asosiy funksional majburiyatları quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

tegishli bo‘linma faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, mazkur bo‘linmaga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmoni va qarori, Vazirlar Mahkamasining qarori va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda Vazirlik hujjatlari bilan yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil qilish;

hududiy bo‘linmalar faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishini so‘zsiz ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlarining bajarilishini ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomini mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881сон va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagи PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq tarkibiy bo‘linma xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy choralar ko‘rish hamda topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishi uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik Hay’ati qarorlari, Vazir va uning o‘rinbosarlari buyruq va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta‘minlash;

tegishli tarkibiy bo‘linmalar mansabdor shaxslarining vakolatlarini belgilash, hududiy bo‘linmalar faoliyatining muayyan yo‘nalishlarini boshqarish uchun ularning shaxsiy javobgarlik darajasini belgilash;

hududiy bo‘linma faoliyatini rejorashtirishni tashkil etish, hududiy bo‘linma choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ularning bajarilishini nazorat qilish;

hududiy bo‘linmada kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, hududiy bo‘linmaning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Vazirlik rahbariyati nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlarning bo‘sh o‘rinlariga tavsiya qilingan xodimlarning, shuningdek, hududiy bo‘linmaga ishga qabul qilinadigan boshqa xodimlarning kasbiy mahorati va bilim darajasi, yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy fazilatlarining kafolatlanganligini ta‘minlash;

hududiy bo‘linma xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etish, o‘zining o‘rinbosarlarini rag‘batlantirish va intizomiy

javobgarlikka tortish bo'yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to'g'risida takliflar kiritish, ularning shaxsiy javobgarligini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;

hududiy bo'linma xodimlari tomonidan Vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-419-son Qonuni talablariga muvofiq hududiy bo'linmalarda korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, huquq amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan ularni aniqlash, tahlil qilish, ularni yuzaga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

hududiy bo'linmalar xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, majlislarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitish, yakuniy natijalar asosida zarur choralar ko'rish;

hududiy bo'linmalar faoliyatini takomillashtirish masalalariga doir qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatish samarasi va sifatini, ulardan foydalanish imkoniyatini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash, ularni Vazirlik rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdim etish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot o'rnatish, ularni shaxsan qabul qilishni, shu jumladan, joylarga borib qabul qilishni muntazam ravishda o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 28-dekabrdagi PF-4904-son Farmoniga muvofiq ularning faoliyatida faol ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasidan tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqish;

hududiy bo'linmalar xodimlariga mukofotlar, lavozim maoshiga qo'shimchalar, moddiy yordam, rag'batlantirish to'lovlarini to'lash va intizomiy choralar qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish, xodimlarni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to'g'risida Vazirlikka takliflar kiritish;

davlat sirlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan maxfiy axborotlar toifalariga kiritilgan ma'lumotlarning himoyasini ta'minlash.

50. Hududiy bo'linmalar rahbarlarining asosiy funksional majburiyatlarini quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

Vazirlikning hududiy bo'linmalarini faoliyatining umumiyligi boshqaruvini amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlikning tegishli hujjatlari bilan mazkur bo'linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarining bajarilishini tashkil etish;

hududiy bo'linmalarning faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlarga erishilishini so'zsiz ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlarining bajarilishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomini mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruв organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagи PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq Vazirlikning hududiy bo‘linmalari xodimlarining ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy choralarни amalga oshirish hamda topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlashi uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik Hay’atining qarorlari, Vazir, Vazirning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlarining buyruq va topshiriqlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qaror va farmoyishlari o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta’minlash;

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan hamkorlik qilish;

o‘z o‘rinbosarlari vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida xizmat vazifalarini taqsimlash, idoraviy mansub tashkilotlar mansabdar shaxslarining vakolatlarini belgilash, o‘z o‘rinbosarlari va boshqa mansabdar shaxslarning idoraviy mansub tashkilotlar faoliyatining ayrim yo‘nalishlari uchun shaxsiy mas’ullik darajasini belgilash;

hududiy bo‘linmalar faoliyatini rejalashtirish, o‘z o‘rinbosarlarining davrlar bo‘yicha ish rejalarini tasdiqlash, ularning amalga oshirilishi yuzasidan nazoratni ta’minlash;

hududiy bo‘linmalarga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur sharoitlar yaratish, kadrlar zaxirasini shakllantirish;

hududiy bo‘linmalarni Vazirlik nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlari bo‘sh o‘rinlariga mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan tavsiya qilingan, shuningdek, ishga qabul qilinayotgan boshqa xodimlarning kasbiy mahorati, bilim darjasasi, amaliy tajribasi va yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy fazilatlari kafolatlanganligini ta’minlash;

hududiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimlarida qolishining maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida takliflar kiritish, ularning xizmat vazifalari va berilgan topshiriqlar bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

hududiy bo‘linmalar xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagи 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari

asosida tasdiqlangan Vazirlik xodimlarining Odob-axloq namunaviy qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

hududiy bo'linmalar miqyosida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining O'RQ-419-son Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sharoit yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish uchun takliflar kiritish yo'li bilan ularni bartaraf qilish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

hududiy bo'linmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichlar so'zsiz bajarilishini muntazam tahlil qilish va Vazirning tegishli o'rinnbosarlariga (shu jumladan, birinchi o'rinnbosarga) hududiy bo'linmaning belgilangan ko'rsatkichlarga so'zsiz erishishini ta'minlashga yo'naltirilgan qo'shimcha choralarни qabul qilish bo'yicha takliflar kiritish;

hududiy bo'linmalar xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini muntazam ravishda tanqidiy tahlil qilish, yig'ilishlarda ularning hisobotlarini eshitish, yakunlari bo'yicha zarur choralar ko'rish;

hududiy bo'linmalar faoliyatiga oid masalalar bo'yicha qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, shuningdek, davlat xizmatlari ko'rsatishning samaradorligi, sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligini yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni Vazirlik rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun kiritish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlарини ko'rib chiqishni "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 31-martdagи 73-sон qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari va davlat muassasalarida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomga muvofiq olib borish, jamoatchilik bilan bevosita va ochiq muloqot o'rnatish, ularni shaxsan qabul qilishni muntazam ravishda o'tkazish, shu jumladan, belgilangan muddatda va tartibda fuqarolar va yuridik shaxslarning vakillarining joylarda qabul qilinishini yo'lga qo'yish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 28-dekabrdagi PF-4904-sон Farmoniga asosan ularning faoliyatida faol ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari va Virtual qabulxonasiiga jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan arizalarni o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqish;

hududiy bo'linmalar xodimlariga mukofotlar, lavozim maoshiga qo'shimchalar, moddiy yordam, rag'batlantirish to'lovlarini to'lash va intizomiy choralar qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish, xodimlarni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to'g'risida Vazirlikka takliflar kiritish;

davlat sirlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan maxfiy ma'lumotlar toifalariga kiritilgan ma'lumotlar himoyasini ta'minlash.

51. Tumanlar irrigatsiya bo'limlari rahbarlarining asosiy funksional majburiyatları quyidagilardan iborat:

funksional vazifalarni xodimlar o'rtasida va faoliyatning alohida yo'nalishlari bo'yicha taqsimlash, ularning mas'uliyati darajasini belgilash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlarining bajarilishini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomini mustahkamlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasini va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga asosan tumanlar irrigatsiya bo‘limlari faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarini amalga oshirish, tumanlar irrigatsiya bo‘limlari xodimlarining topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlashi uchun shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik Hay’ati qarorlari, buyruqlari, Vazir va uning o‘rnbosarlarining buyruq va topshiriqlari, hududiy bo‘linmalarining buyruq va topshiriqlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qaror va farmoyishlarini o‘z vaqtida va sifatli ijro etishni ta’minlash;

hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasida kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan hamkorlik qilish;

hududiy bo‘linmalar rahbarlariga, ularning o‘rnbosarlariga tumanlar irrigatsiya bo‘limlariga kadrlarni tanlash va joylashtirish bo‘yicha takliflar kiritish, ularning kasbiy mahorati, bilim darajasi, amaliy tajribasi va yuqori darajadagi ishchanlik va axloqiy-ma’naviy fazilatlari kafolatlanganligini ta’minlash hamda ularning kasbiy malakasini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish, tumanlar irrigatsiya bo‘limlarida kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Vazirlik xodimlarining Odob-axloq namunaviy qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash;

tumanlar irrigatsiya bo‘limlarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni talablariga muvofiq korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sharoit yaratuvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish uchun takliflar kiritish yo‘li bilan ularni bartaraf qilish va ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

tumanlar irrigatsiya bo‘limlari xodimlariga mukofotlar, lavozim maoshiga qo‘srimchalar, moddiy yordam, rag‘batlantirish to‘lovlarini to‘lash va intizomiy choralar qo’llash, ularni davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash to‘g‘risida hududiy bo‘linmalarga takliflar kiritish;

davlat sirlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan maxfiy ma’lumotlar toifalariga kiritilgan ma’lumotlar himoyasini ta’minlash.

6-bob. Vazirlik rahbarlarining mas’uliyati

52. Vazir quyidagilar uchun shaxsan mas’uldir:

Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;
mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan Vazirlik mas’ul bo‘lgan sohalar;
mazkur Nizomning 43-bandida ko‘rsatilgan funksional majburiyatlarning sifatli bajarilishi.

53. Vazirning birinchi o‘rinbosari va Vazir o‘rinbosarlari quyidagilar uchun shaxsan mas’uldirlar:

Vazirlikning o‘zi boshqaradigan tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ularga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

Vazirlik mas’ul bo‘lgan va mazkur Nizomning 11-bandida ko‘rsatilgan o‘zlarini boshqaradigan sohalar;

mazkur Nizomning 44, 45, 46 va 47-bandlarida ko‘rsatilgan o‘z funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi.

54. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari quyidagilar uchun mas’uldirlar:

tegishli tarkibiy bo‘linmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

Vazirlik markaziy apparati mas’ul bo‘lgan mazkur Nizomning 30-bandida ko‘rsatilgan sohalar;

mazkur Nizomning 49-bandida ko‘rsatilgan o‘zlarining funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi.

55. Hududiy bo‘linmalar rahbarlari quyidagilar uchun shaxsan mas’uldirlar:

hududiy bo‘linmalarga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

hududiy bo‘linmalar mas’ul bo‘lgan mazkur Nizomning 32-bandida ko‘rsatilgan sohalar;

mazkur Nizomning 50-bandida ko‘rsatilgan o‘zlarining funksional majburiyatlarining sifatli bajarilishi.

56. Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari rahbarlari quyidagilar uchun shaxsan mas’uldirlar:

tumanlar irrigatsiya bo‘limlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

tumanlar irrigatsiya bo‘limlari mas’ul bo‘lgan mazkur Nizomning 42-bandida ko‘rsatilgan sohalar uchun;

mazkur Nizomning 51-bandida ko‘rsatilgan o‘zlarining funksional vazifalari sifatli bajarilishi.

7-bob. Vazirlik faoliyatini tashkil etish

1-§. Vazirlik rahbariyati

57. Vazirlikni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi ma‘qullaganidan keyin kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan Vazir boshqaradi.

58. Vazir o‘z maqomiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasining a’zosi hisoblanadi.

59. Vazirning to‘rt nafar o‘rinbosari bo‘lib, ularning bittasi Vazirning birinchi o‘rinbosari hisoblanadi.

60. Vazirning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

61. Vazir vaqtinchalik bo‘lmagan hollarda uning vakolatlarini bajarish Vazir o‘rinbosarlariga majburiyatlarni taqsimlash asosida amalgga oshiriladi.

62. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalarining rahbarlari tegishli Vazir o‘rinbosarining (Vazir birinchi o‘rinbosarining) taklifiga ko‘ra Vazir tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimidan ozod qilinadilar.

63. Vazir tomonidan quyidagilar lavozimlarga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli viloyatlar hokimlari bilan kelishilgan holda — Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli viloyatlar hokimlari takliflariga ko‘ra — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosarlari, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari o‘rinbosarlari, magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari boshliqlari, irrigatsiya tizimi boshqarmalari boshliqlari, nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari boshliqlari, meliorativ ekspeditsiyalar boshliqlari, suv omborlaridan foydalanish boshqarmalari boshliqlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari direktorlari;

tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan kelishilgan holda — viloyatlararo hamda yirik va o‘ta muhim suv xo‘jaligi tashkilotlari boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari;

Vazirning tegishli o‘rinbosari taklifiga ko‘ra — Markaziy dispatcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati boshlig‘i, Axborot-tahlil va resurs markazi boshlig‘i, “Suvloyiha” davlat unitar korxonasi direktori, “O‘zsuvekspertiza” davlat unitar korxonasi boshlig‘i, Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti direktorni va uning o‘rinbosari.

64. Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari boshliqlari tegishli tumanlar (Quvasoy shahri) hokimlari va Vazirlik bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri, tegishli irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari boshliqlari tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod qilinadilar.

65. Vazirlikning tegishli idoraviy mansub tashkilotlari nizomlari belgilangan tartibda Vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

2-§. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalarining Vazirlikning hududiy bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi

66. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalarining hududiy bo‘linmalar va idoraviy mansub tashkilotlar bilan hamkorlik qilishini markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari amalgga oshiradilar.

67. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari hududiy bo‘linmalar bilan Vazirlik faoliyatining yo‘nalishlari bo‘yicha hamkorlik qiladi:

hududiy bo‘linmalarga va idoraviy mansub tashkilotlarga topshiriqlarni yetkazadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

tarkibiy bo‘linmalarning faoliyatiga bevosita taalluqli masalalar bo‘yicha Vazirlikning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarga rasmiy so‘rovnomalar jo‘natadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

Vazirlikning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarning ish rejalarini tahlil qiladi, ular faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish choralarini ko‘radi;

Vazirlikning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish samaradorligi va natijalari to‘g‘risidagi statistik va boshqa ma’lumotlarni, hisobot va axborot materiallarini o‘rganishni tashkil etadi;

Vazirlikning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlar amaliy faoliyatini tekshiradi, o‘rganib chiqadi va umumlashtiradi, uni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

Vazirlikning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlardan tushgan takliflarni ko‘rib chiqadi;

Vazirlikning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarning qonunchilik hujjatlari loyihalarini tayyorlashda qatnashishini uysushtiradi, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha ulardan tushgan takliflarni ko‘rib chiqadi.

68. Vazirlikning idoraviy mansub tashkilotlari Vazirlikning markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi, shu jumladan:

Vazirlik rahbariyati topshiriqlarining bajarilishi to‘g‘risida axborot beradi;

Vazirlik markaziy apparatiga suv xo‘jaligi sohasidagi qonunchilik hujjatlarini bajarish bo‘yicha ish faoliyati natijalari to‘g‘risida ma’lumot taqdim etadi;

ularning faoliyatini tekshirish va o‘rganish davomida aniqlangan ish faoliyatidagi kamchiliklar va qoida buzilishlarini bartaraf etish natijalari to‘g‘risida axborot beradi;

o‘zining faoliyati natijalari to‘g‘risida belgilangan tartibda va muddatlarda Vazirlikning markaziy apparatiga hisobot beradi;

Vazirlikning markaziy apparatiga hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muammolarini, shu jumladan, aholining dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan takliflarni taqdim etadi;

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish natijalari to‘g‘risida axborot beradi;

vakolatli organlar tomonidan o‘zining faoliyatini tekshirish natijalari to‘g‘risida axborot beradi.

69. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari va uning hududiy bo‘linmalari va idoraviy mansub tashkilotlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar Vazirning topshirig‘iga ko‘ra tegishli o‘rnbosarlari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Agar kelishmovchiliklar ko‘rib chiqilgandan so‘ng ham bartaraf etilmagan bo‘lsa, ular bo‘yicha qaror bevosita Vazir tomonidan qabul qilinadi.

3-§. Vazirlikning davlat va xo‘jalik boshqaruving boshqa organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilishi tartibi

70. Vazirlik o‘zining vazifalari va funksiyalarini bajarishda davlat va xo‘jalik boshqaruving boshqa organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

71. Vazirlikning hududiy bo‘linmalari o‘zlarining vakolatlari doirasida xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

Vazirlikning hududiy bo‘linmalari tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish va amalga oshirishda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan o‘zaro uzviy hamkorlik qiladi.

72. Vazirlik Vazirlar Mahkamasining Agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari kotibiyatiga biriktirilgan tashkilotlar ro‘yxatiga kiradi hamda uning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo‘linmalari tomonidan nazorat qilinadi.

4-§. Vazirlikning Hay’ati, tarmoq ilmiy-texnik kengashi va jamoatchilik-maslahat kengashi

73. Vazirlikda uning faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini muvofiqlashtirish uchun tarkibida Vazir (Hay’at raisi), uning o‘rinbosarlari (lavozimiga ko‘ra), manfaatdor vazirliklar va idoralar rahbarlari, suv xo‘jaligi sohasining yetakchi mutaxassislari va olimlari hamda tarkibiy tuzilmalar rahbarlari bo‘lgan 9 kishidan iborat Hay’at tuziladi.

Hay’atning a’zolari soni va shaxsiy tarkibi Vazirning taklifiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

74. Hay’atga quyidagi vazifalar yuklanadi:

suv xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, suv xo‘jaligi sohasida yangi texnologiyalarni joriy qilish va takomillashtirishga qaratilgan yagona suv xo‘jaligi siyosatini amalga oshirish, suv xo‘jaligi sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish ishlarini muvofiqlashtirish, suv xo‘jaligi infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirish, irrigatsiya tizimlarini havzaviy boshqarish tamoyili asosida yer usti suvlarining davlat boshqaruvini amalga oshirish va suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish hamda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha mazkur Nizomda belgilangan Vazirlik faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini tayyorlash va amalga oshirish;

qisqa, o‘rta va uzoq muddatli davrlarda suv xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga qaratilgan amalga oshirilayotgan kompleks, sohaviy va hududiy dasturlarni amalga oshirish samaradorligini oshirish uchun qo‘srimcha chora-tadbirlar qabul qilgan va tuzatishlar kiritilgan holda ularning natijadorligini baholash;

Vazirlik tizimi xodimlari va rahbarlarining ularga yuklangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish uchun shaxsiy javobgarligini oshirish bo‘yicha choralar qabul qilgan holda Vazirlik tarkibiy va hududiy bo‘linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini tizimli asosda eshitish;

Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldaggi PF-6166-sod Farmoni, “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralalararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sod qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini

mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi muntazam muhokama qilib borish;

Vazir o‘rinbosarlarining faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishilishini baholashning asosiy mezonlarini O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bilan kelishgan holda belgilangan tartibda tasdiqlash;

Vazirlik faoliyati sohasining hududiy va sohaviy dasturlarini amalgga oshirish natijadorligini choraklik va tizimli asosda ko‘rib chiqish;

joylarda suv xo‘jaligi sohasidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish, yuzaga kelgan muammolarni hal etish bo‘yicha tegishli qarorlarni ishlab chiqqan va qabul qilgan holda kengaytirilgan sayyor Hay’at majlislarini o‘tkazishni tashkil etish;

Vazirlik nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlar ro‘yxatini ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

Vazirlik nomenklaturasiga kiruvchi lavozimlarga xodimlarni tanlash va joyiga qo‘yish masalalarini ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qaror va topshiriqlarida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalash uchun Vazirlik rahbarlari va xodimlarining shaxsiy javobgarligini oshirish va ijro intizomini mustahkamlash.

Shuningdek, Hay’at Vazirlik vakolatlariga kiruvchi boshqa masalalarni ko‘rib chiqishga haqlidir.

75. Hay’at majlisiga davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlari, Vazirlik vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha boshqa tashkilotlar rahbarlari taklif qilinishi mumkin.

76. Hay’at majlisida uning a’zolarining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i ishtirok etsa, Hay’at majlisi qonuniy o‘tkazilgan deb hisoblanadi. Ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha qarorlar ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

77. Hay’at qarorlari Vazirning buyrug‘i (Vazirlik qarorlari) bilan amalgga oshiriladi.

78. Vazir va Hay’at a’zolari o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Vazir Vazirlar Mahkamasiga yuzaga kelgan kelishmovchiliklar haqida xabar bergan holda mustaqil qaror qabul qiladi. Bunday vaziyatda Hay’at a’zolari Vazirlar Mahkamasiga o‘z fikrlarini bildirishlari mumkin.

79. Hay’atning faoliyat yuritish tartibi Hay’at tasdiqlagan reglament asosida belgilanadi.

80. Vazirlik tarkibida Vazirning birinchi o‘rinbosari (Kengash raisi), vazir o‘rinbosarlari, sohaning yuqori malakali mutaxassislari, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari, mustaqil kompaniyalar va boshqa suv xo‘jaligi tashkilotlari xodimlari bo‘lgan suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha Tarmoq ilmiy-texnik kengash tuziladi.

Tarmoq ilmiy-texnik kengash a’zolari soni, shaxsiy tarkibi va nizomi Vazirning buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

81. Vazirlik tarkibida Vazir o‘rinbosari, Vazirlik faoliyatining alohida yo‘nalishlarini muvofiqlashtiruvchi tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va mutaxassislari

hamda tadbirkorlik subyektlari va biznes-uyushmalar vakillari bo‘lgan jamoatchilik maslahat kengashi tashkil qilinadi.

Jamoatchilik maslahat kengashining nizomi, a’zolari ro‘yxati va soni Vazirning tegishli buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

82. Jamoatchilik maslahat kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

suv xo‘jaligini yanada rivojlantirish hamda suv xo‘jaligida ishchanlik va investitsiya muhitini yaxshilashga to‘sinq bo‘layotgan muammoli masalalarni muhokama qilish;

suv xo‘jaligini rivojlantirishga doir qonunchilik hujjatlarini amalga oshirish mexanizmlarini tanqidiy ko‘rib chiqish, suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish;

xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolardan tushadigan muammo va takliflarni tahlil qilish, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish natijalariga ko‘ra suv xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

qonunchilik bazasini takomillashtirishda, shu jumladan, suv xo‘jaligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha ishlab chiqiladigan va ko‘rib chiqish uchun Vazirlikka kiritiladigan qonunchilik hujjatlarini muhokama qilish orqali ishtiroy etish.

8-bob. Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlari

83. Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari hamda ishchi indikatorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlanadigan Suv xo‘jaligini rivojlantirishning konsepsiyalari va ularni amalga oshirish bo‘yicha strategiyalarda belgilanadi.

84. Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash natijalari asosida:

Vazirlik rahbariyati va xodimlariga nisbatan rag‘batlantirish (mukofotlash) yoki intizomiy javobgarlikka tortish;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish choralarini ko‘riladi.

9-bob. Vazirlik faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnika ta’minoti, xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish

85. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzurida belgilangan tartibda Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) yuridik shaxs maqomisiz tuziladi.

Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi respublika budjeti mablag‘lari;

suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish qoidalari buzganlik uchun ma’muriy jazo choralarini qo‘llashdan, shuningdek, suv olish tartibini buzganlik uchun jarimalardan tushgan tushumlarning 30 foizi;

Vazirlik tarkibiga kiruvchi o‘zini o‘zi moliyalashtiradigan tashkilotlar so‘f foydasining o‘z ixtiyorida qoldiriladigan qismidan tuzilgan shartnomalar asosidagi ajratmalar;

Vazirlik suv xo‘jaligi foydalanish tashkilotlarining ular tomonidan suv resurslarini issiqlik elektr energiyasi va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi

tashkilotlarning ehtiyojlari uchun yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan tushgan tushumlardan ajratmalar;

suv xo'jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyiha-qidiruv ishlari umumiyligi qiyomatiga qo'shimcha kiritilgan 10 foizgacha miqdordagi mablag'larning 50 foizi;

vaqtincha bo'sh turgan budgetdan tashqari mablag'larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriyalari;

xalqaro grantlar va texnik ko'maklari;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi to'g'risidagi nizom Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

86. Vazirlik markaziy apparati, Suv xo'jaligida kapital qurilish loyihamini amalga oshirish agentligi, Markaziy dispatcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati, Axborot-tahlil va resurs markazi faoliyati budgetdan ajratilgan mablag'lar, Vazirlik huzuridagi Suv xo'jaligi vazirligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga, suv xo'jaligining boshqa budget tashkilotlari faoliyati esa — budgetdan ajratilgan mablag'lar va qonunda taqiqlanmagan manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

Bunda ish haqi, ikki oylik mehnatga haq to'lash fondi miqdoridagi mukofotlar va bir oylik mehnatga haq to'lash fondi miqdoridagi moddiy yordam to'lovlar, shuningdek, boshqa xarajatlar budget mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

87. Vazirlik xodimlarining lavozim ish haqiga xodimlarning uzoq yillik uzuksiz xizmati asosida har oylik ustama va moddiy rag'batlantirish to'lovlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

10-bob. Vazirlikning Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli tarkibiy bo'linmalari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldidagi hisoboti

88. Vazirlik rahbariyati tasdiqlangan Vazirlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari hamda ishchi indikatorlari ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida shaxsan javob beradi hamda Vazirlar Mahkamasi oldida hisobot beradi.

89. O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinosari Vazirlikka yuklangan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida Vazirlik rahbariyati faoliyatining doimiy monitoringini olib boradi, Vazirlik faoliyatining natijadorligiga xolisona baho beradi.

90. Vazirlik faoliyatining monitoringi va baholash natijalariga ko'ra Vazirlikning alohida namuna ko'rsatgan mansabdar shaxslari va xodimlariga nisbatan ularni rag'batlantirish yoki jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yanligi uchun javobgarlikka tortish, egallab turgan lavozimidan bo'shatish kabi choralar ko'riladi.

11-bob. Yakunlovchi qoida

91. Vazirlikni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining
2021-yil 17-sentabrdagi
573-son qaroriga
2-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida
kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) maqomi, faoliyatini tashkil etish hamda hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

2. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag‘lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladigan irrigatsiya-melioratsiya loyihalari uchun buyurtmachi funksiyalarini bajaruvchi hududiy “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

3. Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligiga bo‘ysunadi.

4. Agentlik o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (keyingi o‘rinlarda — Vazirlar Mahkamasi) qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) buyruqlari va Hay’at qarorlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

5. Agentlik yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, banklarda hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisobvaraqlariga egadir.

6. Agentlik o‘z faoliyatida Vazirlikka bo‘ysunadi va hisobot beradi.

7. Agentlikning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi — O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi;

qisqartirilgan nomi — Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi — Agentstvo po realizatsii proyektov kapitalnogo stroitelstva v vodnom xozyaystve pri Ministerstve vodnogo xozyaystva Respublikи Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi — Agentstvo po realizatsii proyektov kapitalnogo stroitelstva v vodnom xozyaystve;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi — Agency for the Implementation of Capital Construction Projects under the Ministry of Water Resources of the Republic of Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi — Agency for the Implementation of Capital Construction Projects.

8. Agentlikning joylashgan joyi (pochta manzili): 100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Qorasuv 4-dahasi, 11-uy.

2-bob. Agentlik tuzilmasi

9. Agentlik tarkibiga quyidagilar kiradi:
markaziy apparat;
“Qoraqalpog‘istonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Andijonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Buxorosuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Jizzaxsuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Navoiysuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Namangansuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Samarqandsuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Surxondaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Sirdaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Toshkentsuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Farg‘onasuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Xorazmsuvqurilishinvest” davlat muassasasi;
“Pitnaksuvqurilishinvest” davlat muassasasi.

3-bob. Agentlikning asosiy vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Agentlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

suv xo‘jaligida kapital qurilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor investitsiya loyihalarini oshkoraliq asosida tanlash, ularning yillik, qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish;

suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarining manzilli ro‘yxatlarini belgilangan tartibda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda tasdiqlash;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqilishi, ekspertizadan o‘tkazilishi va bosh pudrat tashkilotlarini tanlov (tender) asosida aniqlashni hamda tegishli shartnomalar rasmiylashtirishni tashkil qilish;

suv omborlari va boshqa toifalangan suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiqish hamda ekspertiza qilish, shuningdek, ularning xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishga xorijiy mutaxassislarini jalgab qilish;

kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tizimli monitoring yuritish, shuningdek, buyurtmachi va pudrat tashkilotlari tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash, loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘rish.

11. Agentlik o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) suv xo‘jaligida kapital qurilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ustuvor investitsiya loyihalarini oshkoraliq asosida tanlash, ularning qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish sohasida:

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalari, Vazirlikning hududiy bo‘linmalari, suv iste’molchilar uyushmalari, fermer xo‘jaliklari, klasterlar va manfaatdor boshqa idoralar va tashkilotlar ishtirokida joylarda irrigatsiya tizimi kanallari, suv omborlari va sel-suv omborlari, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari hamda boshqa suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini o‘rganishni tashkil qiladi;

o‘rganish natijalarini, sug‘oriladigan yerkarning suv ta’minoti va meliorativ holatini tahlil qilish asosida irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha ustuvor loyihalarini aniqlash, qisqa va uzoq muddatli hududiy dasturlar va manzilli ro‘yxatlar ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

ustuvor loyihalar va hududiy dasturlar oshkorlik asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlarida belgilangan tartibda muhokama qilinishini, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan tasdiqlanishini tashkil qiladi;

b) suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarining manzilli ro‘yxatlarini belgilangan tartibda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilgan holda tasdiqlash sohasida:

irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha qisqa va uzoq muddatli hududiy dasturlar va manzilli ro‘yxatlarni “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari bilan birgalikda ko‘rib chiqadi hamda Vazirlikning tarmoq kengashida belgilangan tartibda himoyasini tashkil qiladi;

irrigatsiyani rivojlantirish va sug‘oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha qisqa va uzoq muddatli dasturlar va manzilli ro‘yxatlarni shakllantiradi hamda manfaatdor davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar bilan kelishgan holda tasdiqlaydi;

v) suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqilishi, ekspertizadan o‘tkazilishi va bosh pudrat tashkilotlarini tanlov (tender) asosida aniqlashni hamda tegishli shartnomalar rasmiylashtirishni tashkil qilish sohasida:

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalari tomonidan suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun tanlov (tender) asosida bosh loyiha tashkilotlarini aniqlash, tanlov (tender) g‘oliblari bilan shartnomalar o‘z vaqtida rasmiylashtirilishi yuzasidan tizimli monitoring olib boradi;

loyiha-smeta hujjatlari o‘z vaqtida ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil qilish hamda muammoli masalalarning yechimi bo‘yicha “Suvqurilishinvest” davlat muassasalariga amaliy yordam ko‘rsatadi;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hamda ta’mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari tomonidan tanlov (tender) asosida pudrat tashkilotlarini aniqlash hamda tegishli shartnomalar rasmiylashtirilishi va moliyalashtirish boshlanishi yuzasidan tizimli monitoring yuritadi;

g) suv omborlari va boshqa toifalangan suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihamalarini ishlab chiqish hamda ekspertiza qilish, shuningdek, ularning xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishga xorijiy mutaxassislarini jalg qilish sohasida:

suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlari loyihalarini ishlab chiqish hamda ekspertizadan o‘tkazilishi yuzasidan monitoring yuritadi, mavjud qoloqlik va kamchiliklar bo‘yicha belgilangan tartibda amaliy choralar ko‘radi;

suv omborlari, sel-suv omborlari va xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarining texnik topshirqlarini, shuningdek, loyiha hujjatlarini Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan kelishadi;

ko‘p yillik tajribaga va yetarli malakaga ega bo‘lgan xalqaro konsulantlar, xorijiy mutaxassislar bilan belgilangan tartibda muzokaralar olib boradi;

suv omborlari, sel-suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo‘lgan boshqa suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlari loyihalarini ishlab chiqishga hamda ekspertiza qilishga, shuningdek, ularning xavfsizlik mezonlarini ishlab chiqishga xalqaro konsulantlar, xorijiy mutaxassislar bilan belgilangan tartibda tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi hamda xalqaro normalarga asosan jalb qiladi;

d) kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tizimli monitoring yuritish, shuningdek, buyurtmachi va pudrat tashkilotlari tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minalash, loyihalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘rish sohasida:

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalari hisobotlari, shuningdek, takliflari va murojaatlarini tahlil qilib borish;

suv xo‘jaligi sohasidagi kapital qurilish loyihalarini amalga oshirishda qurilish-montaj ishlarining sifatlari bajarilishi uchun tegishli davlat arxitektura-qurilish hamda mualliflik nazoratini olib borish bo‘yicha “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari tomonidan tegishli shartnomalar rasmiylashtirilishi va shartnomalar ijrosi yuzasidan monitoring yuritish;

davlat arxitektura-qurilish hamda mualliflik nazoratlarining olib borilishida aniqlangan kamchiliklar buyurtmachilar va bosh pudrat tashkilotlari tomonidan o‘z vaqtida bartaraf etilishi yuzasidan nazorat olib borish;

qurilish ishlarining joylarda borishini maqsadli o‘rganib borish, muammolarni aniqlash, ularning yechimi yuzasidan tezkor choralar ko‘rish;

loyihalar doirasida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar, muammolar va tegishli hisobotlarni Vazirlikka, shuningdek, manfaatdor davlat boshqaruv organlari va boshqa tashkilotlarga belgilangan tartibda taqdim etib borish;

qurilishi yakunlangan suv xo‘jaligi obyektlari belgilangan tartibda foydalanishga qabul qilinilishini tashkil qilish;

buyurtmachi va pudrat tashkilotlarining qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etishi bo‘yicha o‘quv kurslari va seminarlar tashkil qilish.

4-bob. Agentlikning huquqlari va javobgarligi

12. Agentlik o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy huquqni olish, mol-mulkka egalik qilish majburiyatlarini olish va sudda da’vogar bo‘lish;

suv xo‘jaligi qurilishiga oid masalalar bo‘yicha qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va ishlab chiqishda qatnashish, shuningdek, ular haqida o‘z xulosalarini berish;

o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha ma’lumot va materiallarni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, respublika tashkilotlaridan belgilangan tartibda so‘rab olish;

tegishli dasturlar va konsepsiylar doirasida amalga oshiriladigan suv xo‘jaligi qurilishi loyihalarini moliyalashtirish maqsadida Vazirlik rejalarini ishlab chiqish bo‘yicha o‘z takliflarini kiritish;

suv xo‘jaligi qurilishi sohasidagi davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, nodavlat notijorat tashkilotlari, yetakchi loyiha institutlari, ilmiy tashkilotlar, ta’lim muassasalari, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning yuqori malakali xodimlarini hamda mutaxassislarini shartnomaga asosida jalgan etish;

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan qurilish loyihalarini bajarishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish va mas’ullarga nisbatan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda jazo choralarini qo‘llash.

Agentlik qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

13. Agentlik:

Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishi;

Agentlik faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishning so‘zsiz ta’minlanishi;

Agentlik tomonidan Vazirlikka kiritiladigan qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlar loyihalarini sifatli ko‘rib chiqish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari hamda Vazirlik buyruqlari va qarorlari o‘z vaqtida bajarilishi sifati, yakuniy natijalari va oqibatlari;

suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha dasturlar, chora-tadbirlar rejalarini, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlar bajarilishi uchun mas’uldir.

5-bob. Agentlik rahbarlarining asosiy funksional vazifalari

14. Quyidagilar Agentlik Bosh direktorining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlari loyihalarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

Agentlik faoliyatiga umumiylar rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Vazirlikning buyruqlari, Hay’at qarorlari hamda boshqa qonunchilik hujjatlari bilan Agentlikka yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari bajarilishini ta’minalash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlarini samarali va natijali ijro etish, shuningdek ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasini va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minalashga qaratilgan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga asosan Agentlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarни amalga oshirish, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining topshiriqlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalashi uchun shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Agentlik faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta’minalash bo‘yicha amaliy choralarни ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish;

o‘z o‘rinbosarlari va Agentlikning boshqa mansabdar shaxslari vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, Agentlik faoliyatining alohida yo‘nalishlariga rahbarlik qilish uchun o‘z o‘rinbosarlari va boshqa mansabdar shaxslarning shaxsiy mas’uliyati darajasini belgilash;

Agentlik faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, suv xo‘jligi qurilishi sohasidagi ish hajmlaridan kelib chiqib Agentlik va o‘z o‘rinbosarlarining oylik va choraklik ish rejalarini tasdiqlash hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari hamda Vazirlikning buyruqlari va Hay’at qarorlari ijrosini tashkil etish va monitoring olib borishning amaliy tizimini yaratish, shuningdek, Agentlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Agentlik xodimlarini hamda “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari rahbarlarini tizimli ravishda qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

Agentlikda kadrlarni tanlash va ularni joy-joyiga qo‘yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, Agentlikning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Agentlik xodimlari tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagи 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Agentlik xodimlarining Odob-axloq na’munaviy qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minalash;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq Agentlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo’llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va

amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

Agentlik ishini samarali tashkil etishning zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash;

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishga doir samarali ishlarni tashkil etish, aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib sayyor qabul o‘tkazish;

davlat siri sirasiga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

Agentlik boshqarma va bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomni belgilangan tartibda tasdiqlash;

Agentlik xodimlarini (Bosh direktor o‘rinbosarlaridan tashqari) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish;

Agentlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan buyruqlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish, shuningdek, ularning ijrosini belgilangan tartibda nazorat qilish;

xodimlarning belgilangan umumiy shtat birliklar soni doirasida Agentlik shtatlar jadvalini, shuningdek, Agentlik xarajatlar smetasini belgilangan tartibda tuzish va tasdiqlash hamda uni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Vazirlikka taqdim qilish;

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalarining saqlash xarajatlari bo‘yicha shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi belgilangan tartibda tasdiqlanishini tashkil qilish;

Agentlik nomidan ishonch qog‘ozsiz harakat qilish, uning manfaatlarini davlat boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlarda himoya qilish;

shartnomalarni, jumladan, xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

ishonch qog‘ozlarini berish.

Agentlik Bosh direktori qonunchilik hujjatlari muvofiq boshqa funksional vazifalarni ham bajaradi.

15. Agentlik Bosh direktorining o‘rinbosarlari Agentlik Bosh direktori tavsiyasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

16. Quyidagilar Agentlik Bosh direktorining suv xo‘jaligini rivojlantirish dasturlarini shakllantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

Bosh direktor vaqtincha bo‘lmaganda tegishli buyruq asosida uning vazifalarini bajarish;

Vazirlik Hay’ati, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri va Agentlik Bosh direktorining buyruqlari va topshiriqlari o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminisratsiyasi rahbarining topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari

bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlarini samarali va natijali ijro etish, shuningdek ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son va "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida" 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga asosan Agentlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarни amalga oshirish, tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining topshiriqlar o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashi uchun shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

suv xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha ustuvor loyihalarni oshkorlik asosida belgilangan tartibda tanlash, ularning yillik, qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish;

buyurtmachi tashkilotlarning loyiha-qidiruv ishlari manzilli ro'yxatlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Agentlik Bosh direktoriga kiritish hamda tegishli davlat boshqaruvi organlari va bosh tashkilotlar bilan belgilangan tartibda kelishishda ishtirok etish;

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat'iy rioya qilgan holda kapital qurilishda boshqaruv va xo'jalik munosabatlari tizimiga bozor tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish, loyiha-qidiruv ishlarni bajarishga "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari tomonidan buyurtmalar joylashtirilishini, tanlov (tender) savdolarini tashkil etish;

suv xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha loyihalarning loyiha-smeta hujjatlari belgilangan tartibda ishlab chiqilishini, ekspertizadan o'tkazilishini nazorat qilish;

suv xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash ishlari bilan bog'liq loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil etish;

suv xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari, shuningdek, loyihalarda yuzaga kelgan muammolar belgilangan tartibda Vazirlikning suv xo'jaligi masalalari bo'yicha Tarmoq ilmiy-texnik kengashi muhokamasiga kiritilishini tashkil etish;

suv xo'jaligi qurilishi sohasini takomillashtirishga, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga doir takliflarni Bosh direktorga kiritish;

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq Agentlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik

shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni samarali tashkil etish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

mutasaddilik qiladigan tarkibiy bo'linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bo'yicha Agentlik Bosh direktoriga takliflar taqdim etish, ularning soha yo'nalishida professionalligi, o'z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta'minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko'rish, kadrlar zaxirasini shakllantirish;

mutasaddilik qiladigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko'rib chiqish bo'yicha takliflarni Bosh direktorga kiritish, funksional vazifalar va yuklangan vazifalar bajarilishi uchun ularning shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ko'rish;

faoliyat yo'nalishi bo'yicha tarkibiy bo'linmalar tomonidan prognoz ko'rsatkichlarga erishilishini so'zsiz ta'minlash choralarini ko'rish, tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitish va ushbu ko'rsatkichlarga erishilishi uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

Agentlik xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini, mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishini ta'minlash;

Agentlikning mutasaddilik qilinadigan yo'nalish bo'yicha tarkibiy bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, ularning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash;

davlat siri sirasiga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishslashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish.

Agentlik Bosh direktorining o'rnbosari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funkional vazifalarni ham bajaradi.

17. Quyidagilar Agentlik Bosh direktorining suv xo'jaligida kapital qurilish loyihibalarini amalga oshirish bo'yicha o'rnbosarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

Bosh direktor vaqtincha bo'lmaganda tegishli buyruq asosida uning vazifalarini bajarish;

Vazirlik Hay'ati, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vaziri va Agentlik Bosh direktorining buyruqlari va topshiriqlari o'z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminitstratsiyasi rahbarining topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlarini samarali va natijali ijro etish, shuningdek ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va

xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagи PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga asosan Agentlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarни amalga oshirish, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarining topshiriqlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlashi uchun shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlari loyihalarni amalga oshirish sohasida samarali investitsiya siyosatini amalga oshirish hamda tarmoqni ishlab chiqarish jihatidan va ijtimoiy rivojlantirish uchun maqbul ravishda uyg‘unlashtirishni ta‘minlash;

“Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat‘iy rioya qilgan holda kapital qurilishda boshqaruv va xo‘jalik munosabatlari tizimiga bozor tamoyillari hamda mexanizmlarini joriy etish, qurilish ishlarini bajarishga “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari tomonidan buyurtmalar joylashtirilishi, tanlov (tender) savdolarini tashkil etish;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha loyihalarning belgilangan tartibda, tanlov (tender) savdolari asosida shartnoma tuzish orqali to‘liq bajarilishi sharti bilan amalga oshirilishini tashkil etish;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlari loyihalari bo‘yicha buyurtmachi “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari bilan birgalikda tizimli ravishda monitoring olib borish, amalga oshirilayotgan ishlar va muammoli masalalar bo‘yicha takliflarni Vazirlik hamda idoralarga taqdim etib borish;

ajratilgan kapital qo‘yilmalar limitlari asosida buyurtmachilar taqdim qilgan manzilli ro‘yxatlarni, qurilishlarning titul ro‘yxatlarini ko‘rib chiqish, tasdiqlash uchun Agentlik Bosh direktoriga kiritish hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishishda ishtirok etish;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlari ilg‘or qurilish texnologiyalarini, yangi qurilish materiallarini, asbob-anjomlarni joriy etish ishlarini tashkil etish;

qurilishi yakunlangan suv xo‘jaligi obyektlari belgilangan tartibda foydalanishga topshirilishini tashkil qilish;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash-tiklash ishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari, shuningdek, loyihalarda yuzaga kelgan muammolar belgilangan tartibda Vazirlikning suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha Tarmoq ilmiy-texnik kengashi muhokamasiga kiritilishini tashkil etish.

suv xo‘jaligi qurilishi sohasini takomillashtirishga, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga doir takliflarni Bosh direktorga kiritish;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq Agentlik tizimida korrupsiya va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va

amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish, aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

mutasaddilik qiladigan tarkibiy bo‘linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Agentlik Bosh direktoriga takliflar taqdim etish, ularning soha yo‘nalishida professionalligi, o‘z ishini bilihi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta’minalash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish, kadrlar zaxirasini shakllantirish;

mutasaddilik qiladigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni Bosh direktorga kiritish, funksional vazifalar va yuklangan vazifalar bajarilishi uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar ko‘rish;

faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha tarkibiy boshqarma va bo‘linmalar tomonidan prognoz ko‘rsatkichlarga erishilishini so‘zsiz ta’minalash choralarini ko‘rish, bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitish va ushbu ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

Agentlik xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilishini, mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishini ta’minalash;

Agentlikning mutasaddilik qilinadigan yo‘nalish bo‘yicha tarkibiy boshqarma va bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, ularning xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

davlat siri sirasiga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish.

Agentlik Bosh direktorining o‘rinbosari qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funkional vazifalarni ham bajaradi.

6-bob. Agentlik rahbarlarining javobgarligi

18. Agentlik Bosh direktori ushbu Nizomda va boshqa qonunchilik hujjatlarida Agentlikka yuklangan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minalash, shuningdek, Agentlik ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rilishi;

Agentlikdagi ishlarning holati, tarkibiy bo‘linmalarning faoliyatini muvofiqlashtirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish, Agentlik faoliyatida ijro intizomiga so‘zsiz rioya qilinishi uchun javobgardir.

19. Agentlik Bosh direktorning o‘rinbosarlari:
tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi va natijadorligi;

mutasaddilik qilinadigan yo‘nalishlar bo‘yicha suv xo‘jaligini rivojlantirish vazifalari va dasturlari samarali amalga oshirilishini ta’minlash yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligi uchun javob beradi.

20. Agentlikning tarkibiy bo‘linmalarli boshliqlari qonunchilik hujjatlari, Agentlik rahbariyatining topshiriqlari, shuningdek, tarkibiy bo‘linma va Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun javob beradi.

7-bob. Agentlik faoliyatini tashkil etish

21. Agentlikka O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari — Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi Bosh direktori rahbarlik qiladi.

22. Agentlikning tashkiliy tuzilmasi, shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Agentlik tarkibidagi “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari alohida yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhr va blankalarga ega bo‘ladi.

“Suvqurilishinvest” davlat muassasalari direktorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamda Agentlik Bosh direktorining tavsiyasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

8-bob. Agentlik faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari

23. Agentlik faoliyati quyidagi mezonlar va ish indikatorlari asosida baholanadi:
Agentlikning ish rejasida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi holati;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda sifatli ta’minlash holati (kartoteka, hisobot va boshqalar);

Vazirlik buyruqlari, Hay’at qarorlari hamda boshqa topshiriqlar bajarilishiga bo‘lgan munosabat (o‘z vaqtida va sifatli ijro etish, ko‘rsatmalarni so‘zsiz bajarish va hokazo);

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlari yillik prognoz ko‘rsatkichlar ijrosini ta’minlash;

Agentlik uchun ajratiladigan budget mablag‘lari hamda budgetdan tashqari mablag‘lardan maqsadli va tejab foydalanish;

Agentlikni malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish, kadrlar qo‘nimsizligini bartaraf etish (xodimlar uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, ko‘p yillik tajribaga ega soha mutaxassislarini ishga jalg qilish);

Agentlikning moddiy-texnika bazasini kuchaytirish, zarur asbob-uskunalar bilan ta’minlash hamda mavjud texnikalardan unumli foydalanish.

9-bob. Agentlik apparati faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, xodimlar mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish

24. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlardan doirasida Agentlik xodimlari mehnatiga haq to'lanadi.

Agentlik faoliyati quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratilgan mablag'lar;

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriyalari;

xalqaro grantlar va texnik ko'maklar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Agentlik xodimlariga Vazirlik markaziy apparati xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash, moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoya shartlari tafbiq etiladi.

25. Agentlik xodimlarining budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan lavozim ish haqiga har oylik ustama va qo'shimchalar, moddiy rag'batlantirish to'lovlari va mukofotlar mazkur qarorga 5-ilovaga muvofiq tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar xodimlarini moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi nizom assosida amalga oshiriladi hamda Agentlik tashkil etilgan kundan boshlab hisobga olinadi.

10-bob. Agentlikning hisobot berishi

26. Agentlik o'z faoliyatida tezkor va buxgalteriya hisobotini yuritadi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan shakllar va muddatlarda buxgalteriya, statistika va boshqa hisobotlarni manfaatdor vazirliklar hamda idoralarga taqdim etadi.

27. Agentlik faoliyati bo'yicha choraklik hamda yillik moliyaviy hisobotlar Vazirlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlaydi.

28. Agentlik faoliyati Vazirlik va nazorat qiluvchi organlar tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq tekshiriladi.

11-bob. Yakunlovchi qoida

29. Agentlik qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

Vazirlar Mahkamasining
2021-yil 17-sentabrdagi
573-son qaroriga
3-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazining (keyingi o‘rinlarda — Markaz) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatları, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek, uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas’uliyatini belgilaydi.

Markaz suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘lari hamda budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni amalga oshiradigan vakolatli davlat muassasasi hisoblanadi.

2. Markaz o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, loyihalarni amalga oshirish va texnik ko‘maklashishda xalqaro moliya tashkilotlari va donor tashkilotlar bilan erishilgan investitsiyaviy xalqaro kelishuv va shartnomalarga, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) buyruqlari va Hay’at qarorlariga, ushbu Nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlarga rioya qiladi.

3. Markaz yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, banklarda hisobvaraqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisobvaraqlariga egadir.

Markaz tomonidan amalga oshiriladigan har bir loyiha bo‘yicha tijorat banklarida alohida maxsus (22626) hisobvaraqlari ochiladi va loyiha bo‘yicha xarajatlar (ish haqi, soliqlar, ijara, korporativ bank kartalarini to‘ldirish va boshqalar) ushbu hisobvaraqlardan amalga oshiriladi.

Loyihalar bo‘yicha ochilgan maxsus hisobvaraqlardan Markazning boshqa loyihalaridagi qarzdorligi va majburiyatlarini bajarish uchun to‘lovlar amalga oshirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Markaz har bir xorijiy investitsiya loyihasi bo‘yicha Vazirlik nomidan faoliyat yurituvchi vakolatli davlat muassasasi hisoblanadi. Markaz o‘z faoliyatida Vazirlikka bo‘ysunadi va hisobot beradi.

5. Markazning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to‘liq nomi — O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi;

qisqartirilgan nomi — Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi;

b) rus tilida:

to‘liq nomi — Sentr po realizatsii zarubejnih investitsionix proyektor v vodnom xozyaystve pri Ministerstve vodnogo xozyaystva Respubliksi Uzbekistan;

qisqartirilgan nomi — Sentr po realizatsii zarubejnih investitsionix proyektor v vodnom xozyaystve;

v) ingliz tilida:

to‘liq nomi — Center for implementation of foreign investment projects in water sector under Ministry of water resources of the Republic of Uzbekistan,

qisqartirilgan nomi — Water Projects Implementation Center.

6. Markazning joylashgan joyi (pochta manzili): 100128, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Labzak ko‘chasi, 1a-uy manzilidagi “A” blokning 2 va 3-qavatlari.

2-bob. Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan xorijiy investitsiya loyihalarini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda — XMI va XHMT) mablag‘lari ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarini oshkoraliq asosida tanlash, ularning qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish va shakllantirish;

suv xo‘jaligi sohasidagi xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun XMI va XHMT mablag‘larini jalb qilish;

XMI va XHMT mablag‘lari ishtirokidagi xorijiy investitsiya loyihalari manzilli ro‘yxatlari belgilangan tartibda tasdiqlanishini tashkil qilish;

suv xo‘jaligi sohasidagi xorijiy, shu jumladan, XMI va XHMT mablag‘lari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

suv xo‘jaligi sohasidagi xorijiy, shu jumladan, XMI va XHMT ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha tender savdolari asosida bosh pudrat tashkilotlarini belgilangan tartibda aniqlash hamda tegishli shartnomalarni rasmiylashtirish;

loyihalar va subloyihalar amalga oshirilishining tizimli monitoringini olib borish, shuningdek, buyurtmachi va pudratchi tashkilotlar tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash.

8. Quyidagilar Markazning asosiy funksiyalari hisoblanadi:

a) suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan xorijiy investitsiya loyihalarini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining (keyingi o‘rinlarda — XMI va XHMT) mablag‘lari ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarini oshkoraliq asosida tanlash, ularning qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish va shakllantirish sohasida:

Vazirlik va uning hududiy bo‘linmalari, suv iste’molchilari uyushmalari, fermer xo‘jaliklari va klaster tashkilotlari hamda manfaatdor boshqa idoralar va tashkilotlar bilan birlgilikda joylarda tegishli suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatini o‘rganadi;

suv xo‘jaligi sohasidagi muammolarni tahlil qiladi va ustuvor investitsiya loyihalari bo‘yicha takliflarni tayyorlaydi;

suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan xorijiy investitsiyalar, XMI va XHMT kreditlari, grantlari ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarining taqdimotlarini oshkoraliq asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlarida muhokamasini tashkil qiladi;

ustuvor investitsiya loyihalarining qisqa va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqadi va shakllantiradi, manfaatdor vazirlik va idoralarda taqdimotini qiladi;

b) suv xo‘jaligi sohasidagi xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun XMI va XHMT mablag‘larini jalb qilish sohasida:

Vazirlik va boshqa manfaatdor vazirliklar hamda idoralar bilan birgalikda suv xo‘jaligi sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirishga XMI va XHMT kreditlari, grantlari va texnik ko‘maklashish mablag‘larini jalb qilish yuzasidan tadbirlar o‘tkazadi;

investitsiya loyihalarini amalga oshirishga XMI va XHMT kreditlari, grantlari va texnik ko‘maklashish mablag‘larini jalb qilish yuzasidan takliflarni tahlil qiladi hamda Vazirlikka xulosa taqdim etib boradi;

v) XMI va XHMT mablag‘lari ishtirokidagi xorijiy investitsiya loyihalari manzilli ro‘yxatlari belgilangan tartibda tasdiqlanishini tashkil qilish sohasida:

XMI va XHMT kreditlari ishtirokidagi investitsiya loyihalarining (keyingi o‘rnlarda — investitsiya loyihalari) manzilli ro‘yxatlarini ishlab chiqadi va manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan belgilangan tartibda kelishilishini tashkil qilish;

investitsiya loyihalarining manzilli ro‘yxatlarini belgilangan tartibda tasdiqlash uchun Vazirlikka taqdim qiladi;

g) suv xo‘jaligi sohasidagi xorijiy, shu jumladan, XMI va XHMT mablag‘lari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish sohasida;

investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqish bo‘yicha buyurtmachi vazifasini bajaradi;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha tegishli loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun texnik topshiriqlar va tender (tanlov) hujjatlarini ishlab chiqadi, belgilangan tartibda manfaatdor vazirliklar va idoralar, tegishli XMI va XHMT bilan kelishadi;

bosh loyiha tashkilotlarini tender (tanlov) asosida aniqlaydi, ular bilan shartnomalarni rasmiylashtiradi;

loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilishini nazorat qiladi va belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazishni tashkil qiladi;

loyihani amalga oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori loyihasini tayyorlaydi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishadi hamda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

d) suv xo‘jaligi sohasidagi xorijiy, shu jumladan, XMI va XHMT ishtirokidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha tender savdolari asosida bosh pudrat tashkilotlarini belgilangan tartibda aniqlash hamda tegishli shartnomalarni rasmiylashtirish sohasida;

investitsiya loyihalarining bosh pudratchilarini aniqlash yuzasidan tender hujjatlari loyihalarini sifatli ishlab chiqilishini hamda tender komissiyasida ko‘rib chiqilishini tashkil qiladi;

tender hujjatlari loyihalarining tender komissiyasi yig‘ilishlarida shaffof muhokamasini, shuningdek, tender komissiyasi hujjatlarini rasmiylashtirish va belgilangan tartibda XMI va XHMT bilan kelishishni tashkil qiladi;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish yuzasidan tender hujjatlarini belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligi bilan kelishadi hamda belgilangan tartibda o‘tkazadi;

tender g‘oliblari bilan tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi, ularni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazadi va moliyalashtiradi;

e) loyihalar va subloyihalar amalga oshirilishining tizimli monitoringini olib borish, shuningdek, buyurtmachi va pudrat tashkilotlari tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga rioya etilishini ta’minlash sohasida:

investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi yuzasidan ma’lumotlarning ochiqligi va oshkoraligni ta’minlaydi hamda bat afsil axborotlarni Vazirlikning veb-saytida doimiy yoritib boradi;

investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qurilish-montaj ishlarining sifatli bajarilishi yuzasidan texnik nazoratni olib boradi;

investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha shartnoma asosida davlat arxitektura-qurilish hamda mualliflik nazoratini tashkil qiladi;

davlat arxitektura-qurilish hamda mualliflik nazorati olib borilishida aniqlangan kamchiliklar bosh pudrat tashkilotlari tomonidan o‘z vaqtida bartaraf etilishini nazorat qiladi;

investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida yuzaga keladigan muammolarni belgilangan tartibda bartaraf etish chorasini ko‘radi;

investitsiya loyihalari doirasida amalga oshirilgan ishlar va barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha hisobotlarni Vazirlikka, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xalqaro hamkorlik va rivojlanish agentligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarga, shuningdek, XMI va XHMTga belgilangan tartibda taqdim etadi;

xodimlarning va pudrat tashkilotlarining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etishi bo‘yicha o‘quv kurslari va seminarlar tashkil qiladi;

Markazni malakali kadrlar bilan to‘ldirish hamda ularning malakasini oshirib borishni tashkil qiladi.

3-bob. Markazning huquqlari va javobgarligi

9. Markaz o‘ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy huquqni olish, mol-mulkka egalik qilish majburiyatlarini olish va sudda da‘vogar va javobgar bo‘lish;

suv xo‘jaligi qurilishiga oid masalalar bo‘yicha qonunchilik hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ishlab chiqishda qatnashish, shuningdek, ular haqida o‘z xulosalarini berish;

o‘z vakolatiga kiramagan masalalar bo‘yicha ma’lumot va materiallarni davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, respublika tashkilotlaridan belgilangan tartibda so‘rab olish;

tegishli dasturlar va konsepsiylar doirasida amalga oshiriladigan suv xo‘jaligi qurilishi loyihalarini moliyalashtirish maqsadida Vazirlik rejalarini ishlab chiqish bo‘yicha o‘z takliflarini kiritish;

suv xo‘jaligi qurilishi sohasidagi davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, nodavlat notijorat tashkilotlar, yetakchi loyiha instituti, ilmiy-tadqiqot muassasalari, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning yuqori malakali xodimlarini hamda mutaxassislarini shartnomaga asosida jalgan etish;

Vazirlik nomidan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligiga, Tashqi ishlar vazirligiga, Davlat bojxona qo‘mitasiga chet el mutaxassislarining kirish va chiqish vizalarini, ularni ro‘yxatga qo‘yish bo‘yicha hamda investitsiya loyihalari doirasida olib kelingan jihozlar bo‘yicha tegishli murojaatnomalarni rasmiylashtirish;

texnik-iqtisodiy asoslanishni ishlab chiqishni hamda xodimlarni moddiy rag‘batlantirishni qurilish shartnomalaridan 0,5 foiz ajratmalar hisobidan amalga oshirish;

Markaz qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

10. Markaz o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk bilan javob beradi.

4-bob. Markaz rahbarlarining asosiy funksional vazifalari

11. Quyidagilar Markaz direktorining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

suv xo‘jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish;

Markaz faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlikning Hay’at qarorlari, buyruqlari, amaldagi qonunchilik hujjatlari hamda XMI va XHMT talab va tamoyillari bilan Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishini tashkil etish;

Markaz faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta’minlash bo‘yicha amaliy choralarini ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish;

o‘z o‘rinbosarlari va Markazning boshqa xodimlari vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, Markaz faoliyatining alohida yo‘nalishlariga rahbarlik qilish uchun o‘z o‘rinbosarlari va boshqa mansabdar shaxslarning shaxsiy mas’uliyati darajasini belgilash;

Markaz faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, suv xo‘jaligi qurilishi sohasidagi ish hajmlaridan kelib chiqib Markaz va o‘z o‘rinbosarlarining oylik va choraklik ish rejalarini tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshiriqlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari hamda Vazirlikning Hay’at qarorlari va buyruqlari ijrosini tashkil etish va monitoring olib borishning amaliy tizimini yaratish, shuningdek, Markaz faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Markaz xodimlarini tizimli ravishda qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

Markazda kadrlarni tanlash va ularni joy-joyiga qo'yish, ularning samarali faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zarur hollarda xodimlarni moddiy rag'batlantirish maqsadida alohida jamg'arma tashkil etish hamda Markazning kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Markaz xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdag'i 62-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari asosida tasdiqlangan Markaz xodimlarining odob-axloq qoidalari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlarini samarali va natijali ijro etish, shuningdek ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to'g'risida" 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son va "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 31-maydag'i PQ-5132-son qarorlariga hamda Vazirlar Mahkamasining "Ijro intizomini mustahkamlash chora tadbirlari to'g'risida" 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga asosan Agentlik faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash uchun kompleks amaliy choralarни amalga oshirish, tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining topshiriqlar o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashi uchun shaxsiy mas'uliyatini oshirish bo'yicha choralar ko'rish;

"Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq Markaz tizimida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

Markaz ishini samarali tashkil etishning zamонави shakllarini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash;

"Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishga doir ishlarni samarali tashkil etish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib sayyor qabullar o'tkazish;

davlat siri toifasiga kiritilgan ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

Markazning boshqarma va bo'linmalari to'g'risidagi ustavni belgilangan tartibda tasdiqlash;

Markaz xodimlarini (direktor o‘rinbosarlaridan tashqari) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish;

Markaz faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan buyruqlar chiqarish va ko‘rsatmalar berish, shuningdek, ularning ijrosini belgilangan tartibda nazorat qilish;

xodimlarning belgilangan umumiy shtat birliklar soni doirasida Markaz shtatlar jadvalini taqsimlash hamda Markaz xarajatlar smetasini belgilangan tartibda tuzish;

Markaz nomidan ishonch qog‘ozsiz harakat qilish, uning manfaatlarini barcha idoralar, boshqaruv organlari, tashkilotlar, va firmalarda himoya qilish;

shartnomalarni, jumladan, xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

ishonch qog‘ozlarini berish, banklarda hisobvaraqlarni ochish;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

12. Markaz direktorining o‘rinbosarlari Markaz direktori tavsiyasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Quyidagilar direktor o‘rinbosarlarining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, XMI va XHMT talablariga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

direktor vaqtincha bo‘limganda uning vazifalarini belgilangan tartibda bajarish;

Markazning mutasaddilik qilinadigan yo‘nalish bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, ularning xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlash;

faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha tarkibiy bo‘linmalar tomonidan prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni so‘zsiz ta’minlash choralarini ko‘rish, bo‘linmalar rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitish va ushbu ko‘rsatkichlarga erishish uchun ularning shaxsiy javobgarligini oshirish;

mutasaddilik qilinadigan yo‘nalish bo‘yicha bo‘linmalarning ish rejalarini tasdiqlash, ular bajarilishining nazoratini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari ijrosini tashkil etish, Markaz faoliyatida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni bajarish, shuningdek, o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishi yuzasidan mutasaddilik qilinadigan tarkibiy boshqarma va bo‘linmalar rahbarlarining shaxsiy mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

Vazirlik Hay’ati, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri va Markaz direktorining buyruqlari va topshiriqlari o‘z vaqtida hamda sifatli bajarilishini ta’minlash;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalarda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish bo‘yicha Markaz direktoriga takliflar taqdim etish, ularning soha yo‘nalishida professionalligi, o‘z ishini bilishi, amaliy tajribaga, yuksak darajada ishlash xususiyatlariga va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega ekanligi kafolatini ta’minlash, ularning kasbiy malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘rish, kadrlar zaxirasini shakllantirish;

mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish, shu jumladan, ularning egallab

turgan lavozimida qolishi maqsadga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflarni direktorga kiritish, funksional vazifalar va yuklangan vazifalar bajarilishi uchun ularning shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Markaz xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalari talablariga rioya qilinishini, mutasaddilik qilinadigan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarining ushbu qoidalarga rioya etishini ta’minalash;

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq Markaz tizimida korrupsiya va boshqa huquqbarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyotini va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish, bartaraf etish;

suv xo‘jaligi qurilishi sohasi faoliyatini takomillashtirish, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga doir takliflarni direktorga kiritish;

“Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish, aholi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri va ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslar vakillarini muntazam ravishda shaxsan qabul qilish, shu jumladan, joylarga borib qabul qilish;

davlat siri toifasiga kiritilgan ma’lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilish;

jumladan, soha yo‘nalishlari bo‘yicha:

a) Markaz direktorining kredit, grant va texnik ko‘maklarni jalb qilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari:

suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirishga qaratilgan xorijiy investitsiyalar, XMI va XHMT kreditlari ishtiropidagi ustuvor investitsiya loyihalari aniqlanishini, ularning qisqa va uzoq muddatli dasturlari ishlab chiqilishini va tasdiqlanishini ta’minalaydi;

loyihalarni amalga oshirish yuzasidan xorijiy investitsiyalar, XMI va XHMT bilan muzokaralar olib boradi hamda ularning kreditlari, grantlari va texnik ko‘maklarini belgilangan tartibda jalb qilishni tashkil qiladi;

b) Markaz direktorining kredit, grant va texnik ko‘maklar loyihalarini amalga oshirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari:

suv xo‘jaligi sohasidagi xorijiy investitsiyalar, XMI va XHMT kreditlari ishtiropidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini tizimli nazorat qiladi;

investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ishtirop etayotgan pudratchi va konsalting kompaniyalarning loyihalar doirasidagi faoliyatini nazorat qiladi;

suv xo‘jaligi sohasidagi xorijiy investitsiyalar, XMI va XHMT kreditlari ishtiropidagi investitsiya loyihalarining manzilli ro‘yxatlari belgilangan tartibda tasdiqlanishini tashkil qiladi;

XMI va XHMT talablaridan kelib chiqqan holda loyihani amalga oshirishda ishtirop etuvchi mutaxassislarni Vazirlik bilan kelishgan holda ishga qabul qilish bo‘yicha Markaz direktoriga taklif kiritadi.

Markaz direktorining o‘rinbosarlari Vazirlik va Markaz direktori tomonidan berilgan boshqa vazifalarni ham bajaradi.

5-bob. Markaz rahbarlarining javobgarligi

13. Markaz direktori ushbu Nizomda va boshqa qonunchilik hujjatlarida Markazga yuklangan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash, shuningdek, Markaz ishidagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rilishi;

Markazdagi ishlarning holati, tarkibiy bo‘linmalarning faoliyati muvofiqlashtirilishi;

Markazda ijro intizomiga so‘zsiz rioya qilinishi uchun javob beradi.

14. Direktor o‘rinbosarlari:

tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha topshiriqlarning o‘z vaqtida bajarilishi va natijadorligi;

mutasaddilik qilinadigan yo‘nalishlar bo‘yicha suv xo‘jaligini rivojlantirish vazifalari va dasturlari samarali amalga oshirilishini ta’minlash yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligi uchun javob beradi.

15. Markazning tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari qonunchilik hujjatlari, Markaz rahbariyatining topshiriqlari, shuningdek, tarkibiy bo‘linma va Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun javob beradi.

6-bob. Markaz faoliyatini tashkil etish

16. Markazga O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan kelishgan holda O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining taqdimnomasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan direktor rahbarlik qiladi.

Markaz direktori maqomi, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish shartlari bo‘yicha vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi.

17. Markazning tashkiliy tuzilmasi, shtatlar jadvali va xarajatlar smetasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

7-bob. Markaz faoliyatining samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ish indikatorlari

18. Markaz faoliyati quyidagi mezonlar va ish indikatorlari asosida baholanadi:
tashkilotning ish rejasida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi holati (Nizomda belgilangan Markaz funksiyalarini to‘laqonli bajarish);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzurida o‘tkazilgan, shuningdek, hududlarga tashriflari yakuni bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlarida ko‘rsatilgan topshiriqlarning ijrosini belgilangan muddatlarda sifatli ta’minlash holati (kartoteka, hisobot va boshqalar);

Vazirlik buyruqlari va Hay’at qarorlari hamda boshqa topshiriqlar bajarilishiga bo‘lgan munosabat (o‘z vaqtida va sifatli ijro etish, ko‘rsatmalarni so‘zsiz bajarish va hokazo);

Davlat dasturlari doirasida suv xo‘jaligi bo‘yicha yillik prognoz ko‘rsatkichlar ijrosini ta’minlash;

Davlat dasturlari doirasida suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirish uchun ajratilgan kreditlar va budget mablag‘laridan maqsadli va tejab foydalanish;

Markazni malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish, kadrlar qo‘nimsizligini bartaraf etish (xodimlar uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish, ko‘p yillik tajribaga ega soha mutaxassislarini ishga jalb qilish);

Markazning moddiy-texnika bazasini kuchaytirish, zarur asbob-uskunalar bilan ta’minlash hamda mavjud texnikalardan unumli foydalanish.

8-bob. Xodimlar mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish

19. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan ish haqi, unga tenglashtirilgan to‘lovlar, ish haqiga har oylik ustama va qo‘shimchalar, moddiy rag‘batlantirish to‘lovları, mukofotlar va boshqalar doirasida Markaz xodimlari mehnatiga haq to‘lanadi.

Markaz faoliyati quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan ajratiladigan mablag‘lar;

xalqaro moliya institatlari va donor mamlakatlarning qarz, kredit, texnik ko‘mak va grantlari;

xalqaro tender savdolarini tashkil etish bilan bog‘liq mablag‘lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

Markaz buyurtmachi bo‘lgan XMI va XHMT mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar doirasida amalga oshiriladigan qurilish ishlaridan 0,5 foizgacha bo‘lgan ajratmalar (buyurtmachi xarajatlari);

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

9-bob. Markazning hisobot berishi

20. Markaz o‘z faoliyatida tezkor va buxgalteriya hisobotini yuritadi. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xalqaro moliya institatlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari tomonidan belgilangan shakllar va muddatlarda buxgalteriya, statistika va boshqa hisobotlarni manfaatdor vazirliklar va idoralarga taqdim etadi.

21. Markaz faoliyati bo‘yicha choraklik hamda yillik moliyaviy hisobotlar Markazning rasmiy veb-sahifasiga joylashtirilishini ta’minlaydi.

22. Markaz faoliyati Vazirlik va nazorat qiluvchi organlar tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq tekshiriladi.

10-bob. Yakunlovchi qoida

23. Markaz qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligini
rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish
tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Jamg‘arma yuridik shaxs hisoblanmaydi.

Quyidagi Jamg‘armaning maqsadlari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) va uning suv xo‘jaligi budget tashkilotlari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish;

suv xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish;

suv xo‘jaligi budget tashkilotlarining xarajatlar smetalarida ko‘zda tutilmagan xarajatlarini moliyalashtirish;

Vazirlik markaziy apparati, Vazirlik huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihibarini amalga oshirish agentligi, Markaziy dispetcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati, Axborot-tahlil va resurs markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi markaziy apparati xodimlarini hamda zarur hollarda Vazirlikning budgetdan moliyalashtiriladigan tizim tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish.

2-bob. Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish

3. Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi respublika budgeti mablag‘lari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti parametrlaridagi yillik indeksatsiyani o‘z ichiga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi respublika budgetining qo‘srimcha manbalarini hisobidan;

suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy jazo choralarini qo’llashdan, shuningdek, suv olish tartibini buzganlik uchun jarimalardan tushgan tushumlarning 30 foizi;

Vazirlik tizimiga kiruvchi o‘zini o‘zi moliyalashtiradigan tashkilotlar sof foydasining o‘z ixtiyorida qoldiriladigan qismidan tuzilgan shartnomalar asosidagi ajratmalar;

Vazirlik tizimidagi suv xo‘jaligi foydalanish tashkilotlarining ular tomonidan suv resurslarini issiqlik elektr energiyasi va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning ehtiyojlari uchun yetkazib berish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlardan tushgan tushumlardan ajratmalar;

suv xo‘jaligi obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha loyiha-qidiruv ishlari umumiyligi qiyatiga qo‘srimcha kiritilgan 10 foizigacha miqdordagi mablag‘larning 50 foizi;

vaqtincha bo'sh turgan budgetdan tashqari mablag'larni tijorat banklari depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning xayriyalari;

xalqaro grantlar va texnik ko'maklar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

4. Jamg'armaga tushgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligidagi ochilgan uning maxsus shaxsiy hisobvarag'ida jamlanadi.

3-bob. Jamg'arma mablag'laridan foydalanish

5. Jamg'arma mablag'ları quyidagi maqsadlarga ishlataladi:

a) Vazirlik va uning suv xo'jaligi budget tashkilotlari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, shu jumladan:

texnika va texnologiyalarni, jihozlar, kompyuter dasturlari va aloqa vositalarini xarid qilish;

me'yor doirasida budget mablag'ları yetishmagan holatlarda avtotransport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini qoplash, ehtiyoq qismlar va yoqilg'i-moylash materiallarini sotib olish;

suv xo'jaligi sohasida o'quv-namoyish uchastkalarini yaratish va mutaxassislarining malakasini oshirish kurslarini tashkil qilish, oliy ta'lim muassasalari talabalari va professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining o'quv-tanishish mashg'ulotlarini o'tkazish;

markaziy apparat binolari va inshootlarini ta'mirlash;

b) suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shu jumladan:

qonunchilik hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek, innovatsion loyihalar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish;

suv resurslarini integrallashgan boshqarish rejalarini va ulardan kompleks foydalanishning istiqbolli sxemalarini hamda suv xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

suv xo'jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot va loyihalash-tajriba ishlarini moliyalashtirish, ilmiy yutuqlar, innovatsion va ilg'or texnologiyalarni joriy etish;

suv xo'jaligi sohasidagi dolzARB muammolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlanmalarini moliyalashtirish maqsadida respublika ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalariga grantlar ajratish;

konferensiylar, simpoziumlar, seminarlar, treninglar va davra suhbatlarini, shuningdek, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va suv resurslaridan samarali foydalanishni targ'ib qilish ishlarini tashkil etish va o'tkazish;

broshyuralar, bukletlar, kitoblar, to'plamlar va boshqa axborot-ma'rifiy materiallarni ishlab chiqish va nashr etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shu jumladan, xodimlarning xorijiy mamlakatlarda va ta'lim muassasalarida tajriba orttirishlarini tashkil etish;

suv xo'jaligi sohasiga oid xalqaro ko'rgazmalar, tadbirlar, loyihalar va dasturlarda ishtirok etish;

O‘zbekiston Respublikasiga tashrifi davrida xorijiy va xalqaro tashkilotlar rahbarlari va mutaxassislarini qabul qilish va kuzatish bilan bog‘liq tadbirlarning xarajatlarini qoplash;

v) Vazirlik markaziy apparati, Vazirlik huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi, Markaziy dispatcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati, Axborot-tahlil va resurs markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi markaziy apparati xodimlarini hamda zarur hollarda Vazirlikning budjetdan moliyalashtiriladigan tizim tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish, shu jumladan, xodimlarni ichki turizmga yuborish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash;

g) suv xo‘jaligi sohasida kadrlarni tayyorlash bo‘yicha kasb-hunar kollejlarida amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun ularni zamonaviy meliorativ texnika va uskunalar hamda ishlab chiqarish bazasi bilan ta’minlash;

d) Vazirlik markaziy apparatining faoliyati uchun joriy xarajatlar shu jumladan, bayram (Yangi yil, Navro‘z, Mustaqillik kuni, kasb bayrami) tadbirlarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashga;

e) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘zda tutilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa maqsadlarni bajarish.

6. Qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan holatlarda boshqa maqsadlarga Jamg‘arma mablag‘larini sarflash faqat Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilishi mumkin.

7. Jamg‘arma mablag‘lari har yili O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri tomonidan tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar smetasi asosida sarflanadi. Daromadlar va xarajatlar smetasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

8. Jamg‘armaning daromadlar va xarajatlar smetasi kelgusi yilda tushishi kutilayotgan mablag‘lar doirasida va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi markaziy apparat xodimlarini rag‘batlantirish bo‘yicha takliflarini e’tiborga olgan holda bajarilishi lozim bo‘lgan tadbirlardan, kelib chiqib tuziladi.

4-bob. Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanishning hisoboti, nazorati va mas’uliyati

9. Jamg‘arma mablag‘laridan oqilona va maqsadli foydalanish yuzasidan nazorat qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda olib boriladi.

10. Buxgalteriya hisobotlarining to‘g‘ri yuritilishi, hisobotlarni tuzish va Jamg‘armaga mablag‘larining tushishi va uning ishlatilishi haqidagi har choraklik hisobot uchun, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim qilinishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi xo‘jaligi vazirining vakolatli o‘rinbosari va Vazirlikning bosh buxgalteri javob beradi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

11. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tarkibiga kiruvchi
tashkilotlar xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalari

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik) va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlar xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Xodimlarni mukofotlash va ularga moddiy yordam ko‘rsatish quyidagi mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi:

a) O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjet mablag‘lari hisobidan:
yiliga ikki oylik mehnatga haq to‘lash fondi miqdoridagi mukofotlar;
yiliga bir oylik mehnatga haq to‘lash fondi miqdorida moddiy yordam to‘lovlar;
davlat boshqaruv organlari xizmatchilari uchun qonunchilikda belgilangan miqdorda lavozim maoshiga ustamalar;

xodimlarning bazaviy tarif stavkalariga 2020-yil 1-yanvardan 1,2 miqdordagi tuzatish koeffitsiyentini qo‘llash hisobiga ustamalar;

Budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan mehnatga haq to‘lash fondi mablag‘larining 15 foizi miqdorida xodimlarning mehnatini moddiy taqdirlash va rag‘batlantirish;

b) Vazirlik huzuridagi Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) mablag‘lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan:

xodimning uzoq muddat uzlusiz xizmati va umumiy ish stoji davomiyligi uchun har oylik lavozim maoshiga ustamalar;

bayram kunlari uchun mukofotlar;

xodimlarga xizmat majburiyatlarini tashabbuskorona va vijdonan bajarganligi uchun lavozim maoshlariga ustamalar;

xodimlarning sog‘ligini tiklash va ijtimoiy himoya qilish maqsadida moddiy yordam;

yiliga bir marta qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotib olish uchun moddiy yordam; alohida toifadagi xodimlarga qonunchilikda belgilangan boshqa ustamalar.

3. Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan Vazirlik markaziy apparati, Vazirlik huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi, Markaziy dispetcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati, Axborot-tahlil va resurs markazi markaziy apparati xodimlari hamda zarur hollarda Vazirlikning budjetdan moliyalashtiriladigan tizim tashkilotlari xodimlari mukofotlanadi va ularga moddiy yordam ko‘rsatiladi.

2-bob. Jamg‘arma mablag‘lari hisobiga xodimlarni rag‘batlantirish miqdori va shartlari

4. Vazirlilik markaziy apparati, vazirlilik huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi, Markaziy dispatcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati hamda Axborot-tahlil va resurs markazi xodimlarining uzoq muddat uzluksiz xizmati va umumiy ish staji davomiyligi uchun lavozim maoshiga ustamalar har oyda shtat jadvaliga muvofiq holda quyidagi miqdorlarda to‘lanadi:

- 3 yildan 5 yilgacha — 10 foiz;
- 5 yildan 10 yilgacha — 20 foiz;
- 10 yildan 20 yilgacha — 30 foiz;
- 20 yildan ortiq — 40 foiz.

5. O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni, Yangi yil, Xalqaro xotin-qizlar kuni (ayollarga), O‘qituvchi va murabbiylar kuni, Navro‘z bayrami, shuningdek, kasb bayrami uchun xodimlar lavozim maoshining (rag‘batlantiruvchi koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda) bir baravarigacha miqdorda rag‘batlantiriladi.

6. Xizmat vazifalarini sidqidildan va samarali bajarib kelayotgan tashabbuskor xodimlarga lavozim maoshining (rag‘batlantiruvchi koeffitsiyentni hisobga olgan holda) 200 foizigacha har oylik ustamalar belgilanadi. Ustamaning aniq miqdori Vazirlik xodimlari va ushbu Nizomning 3-bandida keltirilgan tashkilotlar rahbarlari uchun O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri tomonidan, ushbu Nizomning 3-bandida keltirilgan tashkilotlar xodimlariga tegishli tashkilotlar rahbarlari tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri alohida o‘rnak ko‘rsatgan markaziy apparat xodimlariga mazkur bandning birinchi xatboshisida belgilangan miqdordan tashqari lavozim maoshining (rag‘batlantiruvchi koeffitsiyentni hisobga olgan holda) 100 foizigacha miqdorda ustamalar belgilashi mumkin, bunday xodimlar soni markaziy apparat umumiy xodimlari sonining 15 foizidan oshmasligi lozim.

7. Xodimlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularning ish samaradorligini oshirish maqsadida har oyda (jamoa shartnomasiga muvofiq) yo‘l-transport xarajatlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining bir baravarigacha hamda xodimning ovqatlanishi xarajatlariga ko‘maklashish maqsadida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravarigacha miqdorda to‘lovlar amalga oshiriladi.

8. Zarur hollarda (rag‘batlantiruvchi koeffitsiyentni hisobga olgan holda) ikki oylik lavozim maoshi miqdorida (kam ta’minlangan oilalar, xodimning davolanishi, 50, 55, 60 yubiley yoshi munosabati bilan, shuningdek, pensiyaga chiqqanda, to‘y, dafn marosimi va boshqalar uchun) xodimlarga kasaba uyushmasi bilan kelishgan holda moddiy yordam puli beriladi.

9. Xodimlarga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotib olish uchun har yili bir marta bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorda to‘lov amalga oshiriladi.

3-bob. Xodimlarni rag‘batlantirish tadbirlarini moliyalashtirish

10. Quyidagilar xodimlarni rag‘batlantirish manbalari hisoblanadi:

Vazirlilik markaziy apparati, Vazirlilik huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi, Markaziy dispatcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati, Axborot-tahlil va resurs markazi markaziy apparati xodimlarini hamda

zarur hollarda Vazirlikning budgetdan moliyalashtiriladigan tizim tashkilotlari xodimlarini rag‘batlantirishni moliyalashtirish manbai — budget mablag‘lari, Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi va Jamg‘arma mablag‘lari;

Vazirlik tarkibiga kiruvchi budget tashkilotlari xodimlarni rag‘batlantirishni moliyalashtirish manbai — O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti, Budget tashkilotlarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

Vazirlikning xo‘jalik hisobidagi tashkilotlari xodimlarini rag‘batlantirishni moliyalashtirish manbai — ularning faoliyati yakunlari bo‘yicha olingan sof foyda mablag‘larining bir qismi;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

11. Xodimlarni moddiy rag‘batlantirishni moliyalashtirish manbalari va miqdori qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasi, budgetdan tashqari jamg‘armalar bo‘yicha daromadlar va xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Yakunlovchi qoida

12. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Vazirlar Mahkamasining
2021-yil 17-sentabrdagi
573-son qaroriga
6-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tizimiga kiradigan budget
tashkilotlari
RO‘YXATI**

T/r	Tashkilotning nomi	Tashkilot soni	Boshqaruв xodimlarining cheklangan soni
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va uning bo‘linmalari		
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati	1	21
	“Kattagar-Bo‘zatov” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	5
	“Quanishjarma” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	“Qizketken-Kegeyli” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	9
	“Paxtaarna-Nayman” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	10
	“Suyenli” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	13
	Orolbo‘yi delta boshqarmasi	1	4
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	16	132
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qoraqalpog‘iston nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	9
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Beruniy nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	8
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	8
	Jami:	26	226
2.	Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Andijonsoy” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	5
	“Qoradaryo-Maylisoy” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	4
	“Savay-Oqburasoy” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	4
	“Ulug‘nor-Mazgilsoy” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	6
	“Shahrixonsov” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	6
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	14	116
	Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	9
	Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	8
	Jami:	22	177

3.	Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Amu-Qorako‘l” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	8
	“Toshrabot-Jilvon” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	6
	“Xarxur-Duoba” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	“Shoxrud-Do‘stlik” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	11	86
	Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	7
	Amu-Buxoro irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	8
	Jami:	18	148
4.	Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	16
	“Zomin” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	“Tuyatortar-Qli” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	4
	“Uchtom” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	5
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	11	56
	Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	7
	Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	7
	Jami:	17	103
5.	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Qarshi magistral kanali” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	17
	“Mirishkor” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	11
	“Oqsuv” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	8
	“Eskianhor” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	8
	“Yakkabog‘-G‘uzor” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	13	108
	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	10
	Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	8
	Jami:	21	196
6.	Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	16
	“Karmana-Konimex” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	5
	“Toshrabot-O‘rtacho‘l” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	5

	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	4	22
	Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	7
	Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	6
	Jami:	9	61
7.	Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Zadaryo” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	“Norin-Haqqulobod” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	5
	“Podshoota-Chodak” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	Katta Namangan magistral kanali boshqarmasi	1	7
	Shimoliy Farg‘ona magistral kanali boshqarmasi	1	8
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	11	106
	Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	10
	Norin-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	8
	Jami:	19	177
8.	Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Oq-Qoradaryo” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	8
	“Darg‘om” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	11
	“Miyonkal-Tos” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	5
	“Mirza-Pay” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	9
	“Narpay” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	8
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	12	66
	Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	9
	Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	6
	Jami:	20	142
9.	Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Surxondaryo” magistral tizim boshqarmasi	1	10
	“Amu-Zang” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	11
	“Surxon-Sherobod” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	9
	“To‘polang-Qoratog” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	11
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	14	76

	Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	9
	Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	7
	Jami:	21	152
10.	Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	16
	“Boyovut” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	14
	“Sho‘ro‘zak-Sirdaryo” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	11
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	8	48
	Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	9
	Quyi Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	8
	Jami:	13	106
11.	Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	Toshkent magistral kanal boshqarmasi	1	6
	“Ohangaron-Dalvarzin” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	12
	“Bo‘zuv” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	10
	“Parkent-Qorasuv” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	13
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	15	136
	Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	7
	Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	8
	Jami:	22	211
12.	Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘linmalari		
	Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Isfayram-Shohimardon” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	9
	“Isfara-Sirdaryo” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	“Norin-Farg‘ona” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	9
	“So‘x-Oqtepa” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	7
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	16	150
	Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	8
	Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	8
	Jami:	23	217

13.	Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va uning bo‘limlari		
	Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi markaziy apparati	1	19
	“Qaramazi-Qilichbay” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	5
	“Polvon-G‘azovat” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	8
	“Toshsaqa” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	8
	“Shovot-Qulovat” irrigatsiya tizimi boshqarmasi	1	10
	Tumanlar irrigatsiya bo‘limlari*	11	56
	Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi	1	7
	Chapqirg‘oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspeditsiya	1	7
	Jami:	17	115
	Hammasi:	248	2032

Vazirlar Mahkamasining
2021-yil 17-sentabrdagi
573-son qaroriga
6a-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining boshqa suv xo‘jaligi budget
tashkilotlari
RO‘YXATI**

T/r	T/r	Tashkilotning nomi	Boshqaruva xodimlarining cheklangan soni
1.	1.	Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi	20
2.	2.	Amu-Buxoro mashina kanalidan foydalanish boshqarmasi	12
3.	2.1.	Elektr tarmoqlari boshqarmasi	4
4.	2.2.	Amu-Buxoro mashina kanali Olot tuman boshqarmasi	6
5.	2.3.	Avtotransport korxonasi	4
6.	2.4.	Amu-Buxoro mashina kanali Qiziltepa tuman boshqarmasi	6
7.	3.	Farg‘ona vodiysi kanallaridan foydalanish boshqarmasi	9
8.	3.1.	Katta Farg‘ona magistral kanali boshqarmasi	8
9.	3.2.	Janubiy Farg‘ona magistral kanali boshqarmasi	7
10.	3.3.	Katta Andijon magistral kanali boshqarmasi	6
11.	4.	Janubiy Mirzacho‘l magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi	8
12.	5.	Zarafshon magistral tizimidan foydalanish boshqarmasi	10
13.	6.	Qirg‘oqlarni himoyalash dambalari va o‘zanlarni tartibga solish inshootlari boshqarmasi	5
14.	7.	Amudaryo Chapqirg‘oq himoya dambalar boshqarmasi	5
15.	8.	O‘ngqirg‘oq kollektori tizimidan foydalanish boshqarmasi	5
16.	9.	Jizzax bosh nasos stansiyasi boshqarmasi	9
17.	10.	Jizzax viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi	5
18.	11.	Qashqadaryo viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi	9
19.	12.	Navoiy viloyati suv omborlari va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshqarmasi	5
20.	13.	Namangan viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi	9
21.	14.	Samarqand viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi	5
22.	15.	Surxondaryo viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi	4
23.	16.	Toshkent viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi	5
24.	17.	Farg‘ona viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi	6
25.	18.	Chimqo‘rg‘on suv omboridan foydalanish boshqarmasi	4
26.	19.	Tuyamo‘yin gidrouzelidan foydalanish boshqarmasi	10
27.	20.	Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihamini amalga oshirish agentligi	20
28.	21.	Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihamini amalga oshirish markazi	20
29.	22.	Markaziy dispetcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati	9
30.	23.	Axborot-tahlil va resurs markazi	10
		Jami:	245

Vazirlar Mahkamasining
2021-yil 17-sentabrdagi
573-son qaroriga
7-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida
kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligining tarkibiga kiruvchi suv
xo‘jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlarini
amalga oshirishda buyurtmachi vazifasini bajaruvchi “Suvqurilishinvest” davlat
muassasalarini**

RO‘YXATI

T/r	Tashkilotlar nomi	Boshqaruv xodimlarining soni*
1.	“Qoraqalpog‘istonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi	35
2.	“Andijonsuvqurilishinvest” davlat muassasasi	34
3.	“Buxorosuvqurilishinvest” davlat muassasasi	38
4.	“Jizzaxsuvqurilishinvest” davlat muassasasi	31
5.	“Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi	34
6.	“Navoiysuvqurilishinvest” davlat muassasasi	22
7.	“Namangansuvqurilishinvest” davlat muassasasi	33
8.	“Samarqandsuvqurilishinvest” davlat muassasasi	33
9.	“Surxondaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi	28
10.	“Sirdaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi	38
11.	“Toshkentsuvqurilishinvest” davlat muassasasi	30
12.	“Farg‘onasuvqurilishinvest” davlat muassasasi	38
13.	“Pitnaksuvqurilishinvest” davlat muassasasi	12
14.	“Xorazmsuvqurilishinvest” davlat muassasasi	26
Jami:		432

*Boshqaruv xodimlarining cheklangan soniga ajratilgan kapital mablag‘lar hajmiga hamda
obyektlar soniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda har yili aniqlik
kiritiladi.

“O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a’lochisi” ko‘krak nishoni to‘g‘risida NIZOM

1. “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a’lochisi” ko‘krak nishoni (keyingi o‘rinlarda — ko‘krak nishoni) bilan ish tajribasiga va kasbiy malakaga ega bo‘lgan, o‘z faoliyatida yuksak natijalarga erishib fidoyi mehnati bilan sohada ajralib turgan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi markaziy apparati, uning hududiy va tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va xodimlari, shuningdek, davlat boshqaruv organlari, xo‘jalik birlashmalari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari mukofotlanadi.

2. Ko‘krak nishoni bilan mazkur Nizomning 1-bandida ko‘rsatilgan xizmatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan shaxslar ham mukofotlanishi mumkin.

3. Ko‘krak nishoni bilan mukofotlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan belgilanadi.

4. Ko‘krak nishoni bilan mukofotlash mazkur Nizomning 1-bandida nazarda tutilgan tashkilotlar va tarkibiy bo‘linmalarning rahbarlari taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

5. Mukofotlash to‘g‘risidagi buyruq O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

6. Ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi bayram va tantanali marosimlar kunlari arafasida O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vaziri yoki uning nomidan va uning topshirig‘iga binoan boshqa mas’ul shaxslar tomonidan tantanali vaziyatda topshiriladi.


7. Ko‘krak nishoni ko‘krakning chap tomoniga, O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlaridan keyin taqiladi.

8. Ko‘krak nishoni bilan mukofotlangan shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida biryo‘la to‘lanadigan pul mukofoti oladilar.

Biryo‘la to‘lanadigan pul mukofoti mukofotlangan shaxslar ishlaydigan tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriyalari hisobidan amalga oshiriladi.

9. Ko‘krak nishoni bilan taqdirlangan shaxs, qoidaga ko‘ra, bir marta mukofotlanadi.

“O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a’lochisi” ko‘krak nishonining TAVSIFI



“O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a’lochisi” ko‘krak nishoni (keyingi o‘rinlarda — ko‘krak nishoni) diametri 34 millimetrlidir doira shaklida bo‘lib, mis qotishmasidan tayyorlanadi.

Ko‘krak nishonining old tomoni markaziga tog‘lar orqasidan chiqayotgan quyosh, paxta, bug‘doy, daraxtlar va suv inshooti tasviri sakkiz burchakli yulduz ichiga joylashtirilgan. Ko‘krak nishonining aylanasi bo‘ylab zarhal hoshiya bilan o‘ralgan moviy rangdagi emal doira ichida “O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO’JALIGI A’LOCNISI” so‘zlari yozilgan. Harflarning balandligi 2,3 millimetr, yozuvlar zarhallangan. Uning pastki qismi markazida zarhal rangdagi sakkiz qirrali yulduz tasviri tushirilgan.

Ko‘krak nishonining orqa tomonida “SONADAGI KO’P YILLIK SAMARALI MENNATLARI UCNUN” yozuvi bitilgan.

Ko‘krak nishonining qalinligi 2,2 millimetrr.

Tasvirlar va yozuvlar qavariqdirdi.

Ko‘krak nishonining old va orqa tomonlarining chetlari qavariq doira bilan o‘ralgan.

Ko‘krak nishoni halqa va ilmoqchalar yordamida to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi qadag‘ichga ulangan.

Qadag‘ichning eni — 26 millimetr, bo‘yi — 17 millimetrdan iborat. Qadag‘ich to‘q moviy rangda. Qadag‘ich markazida eni — 20 millimetr, bo‘yi 13 millimetr bo‘lgan 6 ta yaproq va 5 ta shoxchadan iborat zarhal rangli dafna novdasi joylashgan.

Qadagichning orqa tomoniga ko‘krak nishonini kiyimga taqib qo‘yish uchun to‘g‘nog‘ich ko‘rinishidagi moslama o‘rnatilgan.

Vazirlar Mahkamasining
2021-yil 17-sentabrdagi
573-son qaroriga
8b-ILOVA

**“O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a’lochisi” ko‘krak nishoni
guvohnomasining
TAVSIFI**



“O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a’lochisi” ko‘krak nishoni guvohnomasi (keyingi o‘rinlarda — guvohnoma) 160x110 millimetr o‘lchamdagи kitobcha shaklida bo‘lib, 240 g/kv.m. qalinlikdagi ofset qog‘ozdan tayyorlanadi.

Guvohnomaning tashqi tomoni (birinchi va to‘rtinchi betlari) moviy rangda bo‘lib, plyonka bilan qoplangan.

Guvohnomaning birinchi beti eni 7,5 millimetrli, ichki burchaklari aylana shaklida bo‘lgan to‘q moviy rangli hoshiya bilan o‘ralgan.

Guvohnomaning yuqori chekkasidan (birinchi beti) 35 millimetr pastda, markazda oralig‘i 3,5 millimetrlı uch satrdan iborat matn joylashgan. Birinchi satrda “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI”, ikkinchi satrda “SUV XO‘JALIGI A’LOCHISI”, uchinchi satrda “ko’krak nishoni” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 17-kegl) so‘zлari yozilgan. Undan 6 millimetr pastda “GUVONNOMASI” (katta harflarda, “Times new Roman Bolt” shrifti, 17-kegl) so‘zi yozilgan. Yozuvlar zarhal rangda aks ettirilgan.

Guvohnomaning ichki tomoni (ikkinchi va uchinchi betlari) “Tangir” tasviri tushirilgan och yashil rangda bo‘lib, ofset usulida chop etilgan.

Ichki tomonining chap qismida (ikkinchi beti), markazda ko'krak nishonining asliga teng o'lchamdag'i rangli tasviri aks ettirilgan.

Guvohnomaning ichki o‘ng tomoni (uchinchi beti) yuqori chekkasidan 8 millimetrik pastda, markazda “-sonli guvohnoma” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 10-kegl) so‘zi (15 millimetrlig chiziq bilan birga) joylashgan.

“Guvohnoma” so‘zidan 11 millimetр pastda mukofotlangan rahbar yoki xodimning familiyasi, ismi va otasining ismini qayd etish uchun oralig‘i 8 millimetrlı uchta chiziq tortilgan.

Pastki chiziqdan 6 millimetr quyida, markazda oralig‘i 2 millimetrali uch satrdan iborat matn joylashgan. Matnda “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirining” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 10-kegl) so‘zлari yozilgan.

Undan 5 millimetrr pastda, markazda oralig‘i 5 millimetrl uch satrdan iborat matn joylashgan. Birinchi satrda markazda “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI”, ikkinchi satrda “SUV XO‘JALIGI A’LOCHISI” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 12-kegl), uchinchi satrda “ko’krak nishoni bilan mukofotlandi.” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 10-kegl) so‘zлari yozilgan.

So‘nggi so‘zlardan 9 millimetр pastda, chap tomonda oralig‘и 2 millimetрli bir satrdan iborat matn joylashgan. Matnda “VAZIR” (“Times new Roman Bolt” shrifti, 10-kegl) so‘zlarini yozilgan.

“VAZIR” so‘zidan so‘ng, imzo uchun 20 millimetrlı chiziq chizilgan. Uning tagiga “(Imzo)” so‘zi yozilgan. Undan pastda chap tomonda muhr o‘rnı uchun “M.O.” so‘zları yozilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilayotgan ayrim qarorlari ro‘yxati

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan Bo‘sh turgan va foydalanilmayotgan davlat obyektlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarida “I. “nol” xarid qiymatida sotish” blokining 2-qatori chiqarib tashlansin.

2. Vazirlar Mahkamasining “Samarqand viloyatida “Bulung‘ur” suv omborini qurish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 17-maydag‘i 413-son qarorining 3-bandi ikkinchi xatboshisidagi “Samarqandsuvqurilishinvest” davlat unitar korxonasi” so‘zları “Samarqandsuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zları bilan almashtirilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 13-martdag‘i 155-son qarori bilan tasdiqlangan Suv xo‘jaligi sohasidagi loyiha-qidiruv ishlarini ilmiy-texnik jihatdan kuzatishni tashkil etish va moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 4-bandning to‘qqizinchı xatboshisidagi “Suvqurilishinvest” davlat unitar korxonalariga (keyingi o‘rinlarda — “Suvqurilishinvest” DUK deb ataladi) so‘zları “Suvqurilishinvest” davlat muassasalariga” so‘zları bilan almashtirilsin;

b) 8-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“8. Vazirlik tasdiqlangan Tarmoq ilmiy-texnik kengashining qarorini uch kun mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik)ga “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari tomonidan kelgusi yilda suv xo‘jaligi obyektlarida qurilish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha amalga oshiriladigan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarining loyiha-qidiruv ishlari manzilli ro‘yxatlari (keyingi o‘rinlarda — manzilli ro‘yxatlar)ni ishlab chiqish uchun yuboradi”;

v) 9-bandning birinchi xatboshisidagi “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zları “Suvqurilishinvest” davlat muassasaları” so‘zları bilan almashtirilsin;

g) 10-banddag‘i “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zları “Suvqurilishinvest” davlat muassasaları” so‘zları bilan almashtirilsin;

d) 12-banddag‘i “Suvqurilishinvest” DUKlarga” so‘zları “Suvqurilishinvest” davlat muassasalariga” so‘zları bilan almashtirilsin;

e) 13-bandda:

birinchi xatboshidagi “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zları “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zları bilan almashtirilsin;

oltinchi xatboshidagi “Suvqurilishinvest” DUK” so‘zları “Suvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zları bilan almashtirilsin;

j) 14-banddag‘i “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zları “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zları bilan almashtirilsin;

i) 15-bandning birinchi xatboshisidagi “Suvqurilishinvest” DUK” so‘zları “Suvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zları bilan almashtirilsin;

k) 16-bandda:

ikkinchi va beshinchi xatboshilardagi “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zлari “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zлari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshidagi “Suvqurilishinvest” DUK” so‘zлari “Suvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлari bilan almashtirilsin;

l) 17-bandning beshinchi xatboshisidagi “Suvqurilishinvest” DUKga” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasasiga” so‘zлари bilan almashtirilsin;

m) 18-bandning birinchi va beshinchi xatboshilaridagi “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zлари bilan almashtirilsin;

n) 22-banddagi “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zлари bilan almashtirilsin;

o) ilovada:

3-bosqich qatoridagi “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zлари bilan almashtirilsin;

4-bosqich qatorida:

“Suv xo‘jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi” so‘zлари “Suv xo‘jaligi kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

“Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zлари bilan almashtirilsin;

5-bosqich qatorida:

“Suv xo‘jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi” so‘zлари “Suv xo‘jaligi kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligi” so‘zлари bilan;

“Suvqurilishinvest” DUKlarga” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasalariga” so‘zлари bilan almashtirilsin;

7-bosqich qatoridagi “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zлари bilan almashtirilsin;

9-bosqich qatoridagi “Suvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

10-bosqich qatoridagi “Suvqurilishinvest” DUKga” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasasiga” so‘zлари bilan almashtirilsin;

11-bosqich qatoridagi “Suvqurilishinvest” DUKlar” so‘zлари “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari” so‘zлари bilan almashtirilsin.

4. Vazirlar Mahkamasining “Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 23-fevraldagи 92-son qarorida:

2-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida kapital qurilish loyihalarini amalga oshirish agentligining “Buxorosuvqurilishinvest” davlat muassasasiga (keyingi o‘rinlarda — “Buxorosuvqurilishinvest” davlat muassasasi) Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan maydonlar va cho‘l hududlardagi yerkarni qayta foydalanishga kiritish tadbirlarini amalga oshirish vazifasi yuklansin”;

4-bandda:

birinchi xatboshidagi “Buxorosuvqurilishinvest” DUKka” so‘zлари “Buxorosuvqurilishinvest” davlat muassasasiga” so‘zлари bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshidagi “Buxorosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлari “Buxorosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлari bilan almashtirilsin;

7-bandning birinchi xatoboshisidagi “Buxorosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Buxorosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin.

5. Vazirlar Mahkamasining “2021-yilda Qashqadaryo viloyatida irrigatsiya va melioratsiya ishlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 23-fevraldagi 94-son qarorida:

a) 8-ilovaning 1 va 2-qatorlaridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

b) 8a-ilovaning 1 va 2-qatorlaridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

v) 8b-ilovaning 1-qatoridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

g) 8v-ilovaning 1 va 2-qatorlaridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

d) 8g-ilovaning 1 va 2-qatorlaridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

e) 8d-ilovaning 1-qatoridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

j) 8e-ilovaning 1 va 2-qatorlaridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

i) 8j-ilovaning 1 va 2-qatorlaridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

k) 8z-ilovaning 1 va 2-qatorlaridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

l) 8i-ilovaning 1 va 2-qatorlaridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

m) 8k-ilovaning 1-qatoridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

n) 8l-ilovada:

1 va 2-qatorlardagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin;

“VI. Suv xo‘jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida xususiy sektorga berish” bloki hamda 6-qatori chiqarib tashlansin;

o) 8m-ilovaning 1-qatoridagi “Qashqadaryosuvqurilishinvest” DUK” so‘zлари “Qashqadaryosuvqurilishinvest” davlat muassasasi” so‘zлари bilan almashtirilsin.

6. Vazirlar Mahkamasining “Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish borasida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 10-apreldagi 199-son qarorining 9 va 10-bandlaridagi “Suvqurilishinvest” davlat unitar korxonalarini” so‘zlarini “Suvqurilishinvest” davlat muassasalarini” so‘zlar bilan almashtirilsin.

Vazirlar Mahkamasining
2021-yil 17-sentabrdagi
573-son qaroriga
10-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb
hisoblanayotgan ayrim qarorlari
RO‘YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil 3-iyuldagli 500-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi suv xo‘jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2020-yil 29-yanvardagi 45-son qarori.
3. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-martdagli 215-son qaroriga 2-ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘sishchalarining 8 va 9-bandlari.
4. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagli 397-son qaroriga ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘sishchalarining 97-bandi.
5. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-iyundagi 497-son qaroriga ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari ro‘yxatining 3-bandi.
6. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 28-dekabrdagi 1046-son qaroriga ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlarning 224-bandi.
7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-yanvardagi 26-son qaroriga ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘sishchalarining 3-bandi.
8. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-apreldagi 234-son qaroriga ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlarning 13-bandi.
9. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-iyundagi 411-son qaroriga 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘sishchalarining 38-bandi.
10. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-iyuldagli 429-son qaroriga 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘sishchalarining 36-bandi.
11. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 345-son qaroriga 3-ilovaga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘sishchalarining 31-bandi.